

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT FAKULTETI

Yo`ldoshov Shokirbek Rustamovichning

**5610300 – “Turizm (faoliyat yo`nalishlari bo`yicha)”
ta’lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“MINTAQALARIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANISHIGA TEMIR
YO’L TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA’SIRI
(DAK O’ZBEKISTON TEMIR YO’LLARI URGANCH TEMIR YO’L
VOKZALI MISOLIDA)”**

Ilmiy rahbar:

k.o’qt. Bekjanov D.Y.

Urganch 2015 yil

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

“TURIZM” kafedrasи

**“MINTAQA TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANISHIGA TEMIR
YO’L TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA’SIRI
(DAK O’ZBEKISTON TEMIR YO’LLARI URGANCH TEMIR YO’L
VOKZALI MISOLIDA)”**

Bajaruvchi: **Yo’doshov Shokirbek Rustamovich**

Rahbar: **k.o’qt. Bekjanov D.Y.**

Urganch shahri
2015-yil

MUNDARIJA

KIRISH.....

I-BOB. TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....

- 1.1. MAMLAKATIMIZDA MILLIY TURIZMNING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....
- 1.2. TURIZM INFRATUZILMA VA UNGA TASHKIL QILUVCHI OMILLAR
- 1.3. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH BO`YICHA CHORA-TADBIRLARI.....

II-BOB. MINTAQА TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA TEMIR YO`L XIZMATLARINING TUTGAN O`RNI.....

- 2.1. XALQARO MIQYOSDA TURISTLARNI TEMIR YO`L TRANS`ORTIDA TASHISH.....
- 2.2. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TEMIR YO`L TRANS`ORTI FAOLIYATIDA TURISTLARNING TEMIR YO`L XIZMATLARIDAN FOYDALANISHI.....
- 2.3. MINTAQА TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA DAK O`ZBEKISTON TEMIR YO`LLARI URGANCH VOKZALINING TUTGAN O`RNI.....
XULOSA VA TAKLIFLAR.....
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarining ko‘pchiligi turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali o‘z milliy iqtisodiyotini taraqqiy ettirmoqda. Mamlakatimiz turizmni shakllantirishda har qanday horijiy mamlakatlardan qolishmaydigan imkoniyatlarga egaligi bu borada ko‘plab muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta’minlovchi asosiy manbaa hisoblanadi. Ana shularni hisobga olgan holda, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillardan to hozirga qadar zamon talablariga javob beradigan turizm transport infratuzilmasini tarkib toptirish va rivojlantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar o‘zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O‘zbekistonda 2009 yilda xizmat ko‘rsatish va kichik biznes sohasini aholi bandligini ta’minlash va hayot darajasini oshirishning eng muhim omili sifatida yanada rivojlantirish – ustivor vazifa bo‘lib qoldi¹. O‘zbekturizm milliy kompaniyasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2013 yilda 8142609 kishiga xizmat ko’rastilgan, 2012 yili bu ko‘rsatgich 7 492 010 kishiga xizmat ko’rsatilgan. 2012 yilda bu ko‘rsatgich 2012 yilga nisbatan 8,6 % ko‘p sayyoh kelgan. 2011 yilda mamlakatimizda 5 939131 kishiga sayyohlik xizmati ko‘rsatilgan. Bundan tashqari 2013 yilda mamlakatimiz bo‘yicha 348 turistik korxona va 539 mehmonxona faoliyat yuritgan. Yurtimizda ushbu sohadagi xizmat ko‘rsatishdagi ulushi 2012 yili 49,6 % kichik bizness va mikofirmalarga to’g’ri kelgan bo’lsa. 2013 yilda bu ko‘rsatgich 56,8 % kichik bizness va mikofirmalarga to’g’ri keladi². Ayniqsa, xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni chuqurlashtirish katta ahamiyatga ega ekanini alohida ta’kidlash joiz. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha hududiy dasturlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish va qishloq joylarida ularni aholi, ayniqsa, yoshlar bandligining, qishloq hayot darajasini oshirishning muhim omili sifatida jadal rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar ko‘rish zarur.

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar. -T.:” O‘zbekiston” 2009 yil

² Статистический сборник «Туризм в Узбекистане» Ташкент 2014 г.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishinining asosiy maqsadi mintaqada Xorazm viloyatida temir yo'l transport infratuzimalarni barpo etish va rivojlantirgan holda mintaqada turizm industriyasini salohiyatini yanada oshirish, hamda mintaqqa iqtisodiyotini yanada rivojlantirishdan iborat.

Prezidentimizning 2012 yil yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishidagi ma'rzasida ham iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohalariga e'tiborni qaratish kerakligini ta'kidlab o'tgan edilar. Jumladan, 2013 yilgi ustivor yo'naliш etib belgilangan vazifalarda – mamlakatimizda eksport salohiyatini har tomonlama rag'batlantirish, yurtimizda ishlab chiqarilgan tovarlarning tashqi bozorlarga chiqishi va integratsiyalashuvini ta'minlaydigan infratuzilmani rivojlantirish masalalarining dolzarb ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan edilar³. Bu borada bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarni bajarishda xizmat ko'rsatish sohalaridan biri bo'lgan turizm sohasini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish ham nazarda tutilgan. 2009 yil yakunlari bo'yicha respublika yalpi ichki mahsuloti 8,1 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 9 foizga, qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirish hajmi 5,7 foizga, chakana tovar aylanmasi 5,7 foizga, pullik xizmatlar hajmi 21,3 foizga o'sganligi respublikamizda xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan biri bo'lgan turizm sohasining rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Shu sababli jahon turizmi yutuqlarini o'rganish, tahlil qilish va ijobjiy tomonlarini respublikamiz turizmiga tadbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Bitiruv malakaviy ishida quyidagi masalalar yoritib berilgan:

- turizm infratuzilmasi tushunchasining mazmuni va mohiyatini yoritish;
- turizm infratuzilmasini tashkil qiluvchi omillar va ularning ta'sirini baholash;
- O'zbekiston respublikasida turizm infratuzilmasin rivojlantirish bo'yicha chora – tadbirlari;
- Xalqaro miqyosda turistlarni temir yo'l transportida tashish;

³ Xalq so'zi // 2012 yil.

- O'zbekiston respulikasida temir yo'l transporti faoliyatida turistlarning temir yo'l xizmatlaridan foydalanishi
- Mintaqa turizm infratuzilmasini rivojlantirishda Dak O'zbekiston temir yo'llari Urganch vokzalining tutgan o'rni.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishinining asosiy maqsadi mintaqada temir yo'l transport infratuzilmalarni rivojlantirish orqali mintaqaga keluvchi turistlar oqimini oshirish va shunga bog'liq tarzda mintaqaning turistik salohiyatini yanada oshirish iborat.

Mamlakatimizning turizm infratuzilmasini takomillashtirishda har qanday horijiy mamlakatlardan qolishmaydigan imkoniyatlarga egaligi ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Mustaqil o'lkamizning jahon hamjamiyatida keng miqyosda e'tirof etilishi, dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari bilan o'zaro do'stona munosabatlarning yanada barqarorlashib borishi, tashrif buyurayotgan turistlar oqimining yil sayin ortib borishi, yurtimizda mavjud yangidan-yangi turizm imkoniyatlarining kashf etilayotganligi va boshqa shu kabi o'zgarishlar fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi. Boshqa iqtisodiy tarmoqlarda bo'lgani kabi, turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizga tashrif buyuradigan turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada takomillashtirish va bozor talablariga to'liq javob beradigan turizm sanoatiga ega mamlakat sifatida dunyo hamjamiyati e'tiborini jalb etishdir. Respublikamiz turizmida xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimini rivojlantirishning asosini turistik tashkilotlar, joylashtirish vositalari va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish tashkil etadi.

I-BOB. TURIZM INFRATUZILMASINING RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Mamlakatimizda milliy turizmning vujudga kelishi va rivojlanishi bosqichlari

O'zbekiston Respublikasi 1991 yil 1-sentyabrda o'zining mustaqiligini qo'lga kiritishi natijasida mamlakatda iqtisodiy islohotlar jadallik bilan o'tkazila boshlandi. Shu singari milliy turizm ham shu yillardan shakllana boshladi. Milliy turizmning shakllanishi va rivojlanishiga "O'zbekturizm" MK bosh qosh bo'la boshladi. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda «O'zbekturizm» MK davlat boshqaruvi, tashqi iqtisodiy faoliyat yuritish huquqlariga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi tashkilot bo'lib hisoblanadi.

Milliy turizm rivojlanishi demak shu yillardan boshlandi desak hato bo'lmaydi. Milliy turizmni rivojlanish maqsadida islohotlar bosqichma bosqich amalaga oshirila boshlandi.

Milliy turizm tizimida iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi 1992 yilda boshlangan deyish mumkin. Respublikada boshlangan ushbu islohot yangi iqtisodiyotga asoslanib olib borildi.

Turizm tarmog'ini iqtisodiy isloh qilishning ikkinchi bosqichi 1993-95 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda turmush rivojlanishning milliy modeli ishlab chiqildi. Bu bosqich turistik xizmat ko'rsatishning iqtisodiy o'sishi bilan bir qatorda bir qancha muammolarni tug'dirdi. Bu muammolar yangi turistik marshuratlarni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishning yaxshilash, turizmning moddiy-texnik bazasni kengaytirish, boshqaruvning tashkiliy takomillashtirish va h.o.lar bilan bog'liq bo'lib, ularni faqat «O'zbekturizm» MK doirasida echish mumkin emas.

Turistik ob'ektlar davlat tarmog'idan chiqarildi va xususiy lashtirildi. Nomerli fondda muhim o'zgarishlar amalga oshirildi.

1993 yil oHIRIGA kelib respublika turizm tizimida huquqiy va mustaqil balansga ega bo'lgan 123 tashkilot bor edi.

1995 yilning 1 iyulida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan butun mamlakat xududida amal qiluvchi yagona turistik viza o'rnatildi (davlat tomonidan belgilangan ob'ektlardan tashqari). Turizm rivojning ikkinchi bosqichiga qo'yilgan boshqa bir qadam tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitektura inshoatlari, yaratilgan san'at asarlarning saqlash va ko'paytirishga yo'naltirilgan «meros» milliy dasturni Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi bo'ldi. Bu davrda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xivada xalqaro turizm bo'yicha mahsus ochiq iqtisodiy zonalar to'g'risidagi nizom ishlab chiqildi. «O'zbekturizm» MK turoperatorlar bilan bevosita aloqalarni o'rnatish maqsadida O'zbekiston havo aloqasiga ega bo'lgan mamlakatlarda o'z vakolatxoansni (vakil) ochdi. Germaniyada (Frankfurt), Buyuk Britaniya (London), AQSh (Nyu-York), Birlashgan Arab Amirliklari (Shardj), Rossiyada. (Moskva)

1995 - 1997 yillarda turizmnii isloq qilishning uchinchi bosqichi amalga oshirildi. Bunda xizmatlar sohasida faol xususiy lashtirish boshlandi. 1996 yili «O'zbekturizm» MK tizimidagi barcha turistik ob'ektlarning umumiyligi sonning 90 % ti davlat tasarrufidan chiqarildi⁴.

1998 yildan o'zbek turizmnii isloq qilishning to'rtinchi bosqichga qadam qo'yildi. Bu qayta tiklanish bosqichi bo'lib, eksport salohiyatning oshishi, valyuta, turist, xususiy kapital va investitsiyaning barqaror oqimni ta'minlashga olib keldi. Vazirlar Mahkamasining «Turistik tashkilotlar tashkil etilishni takomillashtirish to'g'risida»gi qarori bilan «O'zbekturizm» MK qayta tashkil qilindi va O'zbekistonning xususiy turistik tashkilotlari Assotsiatsiyasi yaratildi.

1999 yilning maydan boshlab turizm iqtisodiyotning isloq qilishning beshinchi boskichi boshlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A Karimovning «Turizmnii rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni mamlakatda milliy xalqaro turizmnning mavqeni, uning iqtisodiy asoslarni qat'iy belgilash uchun

⁴ «Ўзбектуризм» МК хисоботларидан.

siyosiy asos yaratdi. Bu hujjat bilan turistik tashkilotlarga qo'shimcha bojxona imtiyozlarni yaratildi. Bundan tashqari, O'zbekistonning diplomatik vakillaridan chet elda turizm bo'yicha maslahatchi lavozimiga kiritishdi. 1999 yilning avgustida Parlament «turizm to'g'risida»gi qonunni abul qildi va iqtisodiyotning bu tarmog'ning amal qilish uchun huquqiy asos yaratildi. Shunday qilib, MK oldida asosiy vazifa-O'zbekistonning turistik kompaniyasni kelajakda rivojlantirish va takomillashtirish, uning xalqaro turistik tizimga yuqori rivojlangan industiriya sifatida qo'yishi turibdi. Buning uchun, albatta, iqtisodiyotning bu tarmog'idagi islohotlar strategiyasi va taktikasni doimo takomilashtirib borish zarur.

Respublika turizm salohiyati ixtiyorida bo'lган rezervlar hozircha "jahon standartlari"ga javob bera oladigan turizm salohiyatni barpo qilish uchun sarflanadigan zarur mablag'lar va investitsiyalar yo'qligi sababli foydalanilmay turibdi.

Turistlar oqimini jiddiy chetlab qo'yayotgan omillardan yana biri shuki, turistlar O'zbekistondagi eng mashhur yodgorliklar va butun shahar qurilish ansanbillarini tomosha qilish uchun keladilar. Ammo bu obektlarning turistlarni qabul qilish imkoniyati nixoyatda pastdir. Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi bilan xizmatlarning sifati va nomenklaturasiga, turizm ekskursiya xizmatlari ko'rsatishning turli shakl va usullariga qo'yiladigan yangi talablar ilgari surilmoqda.

Butun dunyoda qo'shma korxonalar tuzish, turistik komplekslarni hamkorlikda ishlab chiqarish va qurish, ishlab turgan obektlarni yangilash maqsadlarida bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etish davlatning turizmni rivojlantirish siyosatidagi eng muhim yo'naliishlardan biridir. Respublikada amerikalik, turkiyalik, pokistonlik, germaniyalik, xindistonlik, italiyalik va boshqa malakatlardan kelgan tadbirkorlar teng huquqli xamkorlar sifatida faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalar tobora ko'prok tashkil qilinmokda. Xorijiy investitsiyalashni imtiyozli yo'naliishlari qatoriga turizmning zamonaviy infrastrukturasni, shu jumladan, transport, telekommunikatsiya, axborot xizmatlari,

tadbirkorlik infrastrukturasning tashkil qilishlar ham kiradi. Bularsiz haqiqiy bozor munosabatlariga o'tish va xalqaro investitsiya faoliyatni keng rivojlantirish amalda mumkin emas. Chet ellik investorning maksimal daromad olishiga intilishi hamda bu loyihani kelgusida amalga oshirish uchun qulay shart - sharoitlar, xorijiy kapital ishtirok etgan har qanday investitsiya jarayonning asosiy xarakatlantiruvchi kuchidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda milliy turistik modelni shakillantirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Respublikada bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan sharoitda turizm o'zning milliy daromadni qayta ta'qsimlash xususiyati asosida milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishning muhim omili bo'lib qolmoqda. Bozor iqtisodiyotida turistlarga asosan xususiy va tijorat kompaniyalari xizmat ko'rsatadi. Bundan tashqari, agar davlat maqul iqtisodiy va huquqiy atmosfera yaratса turizm barqaror rivojlanadi. Boshqa tomondan agar davlat kasbiy tayyorlash, tabbiy va madaniy muhitni muhofaza qilish, axborot-reklama ishlari rasimyatchilikning engillashtirish muammolari bilan shug'ullanmasa faqat bozor stixiyasi hukumronlik ostida turizm rivojlanishning kerakli darajasiga eta olmaydi. Bunda davlat tomonidan mos metodologiyasi metodik va amaliy yondashuvlarning ishlab chiqarish turistik xizmatlar bozorning tashkil etilishiga ahamiyat berish kerak.

O'zbekiston turizmida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishda har bir hudud o'zining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turistlarga xizmat turlarini taklif etadi. Bunda boshqaruv ham etakchi rol o'ynaydi, chunki to'g'ri boshqaruv rivojlanishning garovi hisoblanadi. Respublikamizda turistik hududlarni ajratishda nafaqat turistik sohaning zamonaviy xolati, balki mavjud administrativ-hududiy bulim mikyosida uni rivojlantirish istikbollarini hisobga olish zarur. Bunday bo'linish milliy turizmni rivojlantirishda va turistik resurslardan radtsional foydalanishni taqazo etadi. Turizm zonalarini bulinishi ularga erkin iqtisodiy zonalar makoni berilganda va mavjud potentsial resurslardan samarali foydalanishda juda katta ahamiyatga ega.

Turizm ob'ekti uch komponentni o'z ichiga oladi: turizm hududi, turizm

tashkiloti va turizm korxonasi.

Turizm hududini aniqlashda bir necha yondashuv mavjud, ular quydag'i savollarga beriladigan javoblarga bog'liq: turizm safari uchun tanlangan hududni qanday aniqlash mumkin va turizm maqsadi sifatida qanday o'lchamlarga ega bo'lgan hudud bozor segmentlari tomonidan qabul qilinadi.

BTT dam olish maqsadi, o'qitish jarayoni yoki sog'lomlashtirishni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan keng maxsus qurilmalar va xizmatlarga ega bo'lgan hududga turizm hududi deb ta'rif beradi. Turizm hududi, bu safar maqsadi va turizm mahsuloti.

“Turizm hududi” deb turist safar maqsadi uchun tanlagan jug'rofiy hududni tushunishadi. Bunday xududda turist etib kelishi, joylashishi, ovqatlanishi va dam olishini tashkil qilish uchun zarur bo'lgan hamma sharoit muhayyo.

Turizm hududi dam olish nuqtai nazaridan 4 ta parametrga ega: turar joy, joy, landshaft va ekskursiyalar.

Zamonaviy turizmda hududga ta'rif berishda hududni raqobatli birlik deb tasavvur qilish kerak va iste'molga yo'naltirilgan fikrlashdan foydalanish lozim, butun hududning ishlab chiqarish apparati faqat iste'molchining talabiga mos xizmatlar majmuasini ishlab chiqishi va bu xizmatlar majmuasi xizmatlar maqsadi deb tasvirlanishi mumkin. Xizmatlar zanjiri iste'molchining nuqtai nazaridan xizmatlarni alohida elementlarga ajratuvchi tahliliy quroldir. Iste'molchi korxonaning turli xizmat elementlaridan foydalanganda ularni shu hududning xizmati va xizmat sifati deb baholaydi.

Hududning raqobatbardosh birlik sifatidagi strategik maqsadi hududning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashdir. Turizm faoliyat sohasi 4 ta blokdan iborat:

- kommunikatsiya va mahsulotni sotish;
- turistik anjumanlarni o'tkazish;
- turizm inshoatlarini foydalanishga topshirishga tayyorlash;
- turizm infratuzilmasini rejorashtirish.

Hududdagi turistlarga ximat ko'rsatish quyidagi tashkilotlar orasida taqsimlanadi:

- xokimiyatlar (shaxar darajasida),
- mehmonxona majmualari va ovqatalnishni tashkil qiluvchilar vakillari;
- turoperatorlar va vositachilar;
- transport tashkilotlari.

Turizm tashkilotlari turizm siyosatini shakillantiradi, ya'ni ular turizm uchun foydali asos bo'lувчи shu soha chegaraviy shartlarini yaratish va qo'l-ostidagi hududlar rivojlanishini rag'barlantirishi kerak. Turizm tashkilotlari xususiy yoki davlat birlashmalari shaklida bo'lishi mumkin. Ular o'z faoliyatlarini uch darajada olib boradilar: milliy (federal), viloyat va shahar (hokimiyat).

Mas'uliyat va majburiyatlarini taqsimlash bo'yicha turli darajadagi turizm tashkilotlari orasida quydagি funktsiyalarni ko'rsatish mumkin:

- taklif funktsiyasi eng quyi pog'onadagi tashkilotlarga yuklangan, ular xizmatidan foydalanuvchilar bilan ishlashadi va mahsulotlarni yaxshi bilishadi;
- manfatlar himoyasi funktsiyasi har bir darajada bajarilishi kerak;
- marketing funktsiyasi har bir hududning mashhurligi, ahamiyati, obro'si va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bajariladi;
- etakchi timsolini yaratish va saqlashni har bir darajadagi tashkilotlar bajarishi lozim.

Eski tashkiliy tuzilma quyi bosqich mansabdorlari yuqori mansabdorlariga bo'yishga asoslanib fikrlangan va siyosiy qarorlarni aks ettirgan. Yangi turistik tashkilotlar bozor munosabatlari nuqtai nazaridan ish tutishmoqda. Shunday qilib, turistik tashkilotlar bozor munosabatlari sharoitida sotish mumkin bo'lган turxizmatlarni yaratuvchi boshqaruv organi va xususiy tashkilotlardan iborat.

Turizm korxonalari birlamchi va ikilamchi xizmat ko'rsatuvchi korxonaga

bo'linadi⁵. Birinchi turga quydagilar mansub:

- turoperatorlar va turvositachilar;
- maxsus xizmat transport korxonalari;
- mehmonxona tashkilotlari;

Ikkinci turga kuyidagilar kiradi:

- ovqatlanish korxonalari;
- umumi foydalanish transport vositalari.

Mintakalarda boshqaruv tizimini tashkil qilishning asosiy xususiyatlari hisobi shu bilan birgalikda O'zbekiston respublikasi doirasida administrativ bulinish natijasida to'rtta turistik -Farg'ona, Toshkent, Samarqand-Buxoro va Xorazm, uchta istiqbolli –Jizzax, Qarshi-Termiz, O'rta-Qoraqalpoq rayonlariga ajratilgan⁶.

Hududiy boshqaruvni o'z ichiga olgan Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlari Farg'ona turistik rayoni hisoblanib, respublikaning sharqiy qismida joylashgan. Tabiiy-iqlimi sharoitlarining turli xilligi, majmuasi bilan turistik ob'ektlarning ko'p turliligi sog'lomlashtiruvchi turizmning keng rivojlanishi uchun hududdan foydalanish imkoniyatini aniqlaydi. Farg'ona turistik rayonining kompleksini shakllantiruvchi asosiy turistik ob'ektlar bo'lib: arxeologik va me'moriy yodgorliklar, sanoatlashgan komplekslar hisoblanadi. Rayonda tabiiy dam olish zonalari tashkil kilingan. Ular Sux daryosi, Sariq qo'rg'onida, Oydin-ko'l ko'lida, Andijondan janubi sharqda «Bog'ishamol», Karkidon suv omborida Soglashtiruvchi turizmning markazlari bo'lib Komon soy, Vodil, Shoximardon shaharlari, «Kuksaroy» «Shirmonbuloq» turistik bazalar, Andijon suv ombori qirg'oqlari hisoblanadi. Bu erda tabiiy imkoniyatlar ancha kengdir.

Temir yo'llar va avtomobil yo'llarini keng tarmoqliligi Farg'ona rayonida xorijiy turizm industriyasining rivojlanishi uchun ma'kul keladi.

Toshkent turistik rayonida boshqaruv tizimini tashkil qilishda hududiy birlik

⁵ Буторова Н. В. Менеджмент и маркетинг иностранного туризма. -М: Советский спорт. 1999 г. 43 ст.

⁶ A.N.Norchoev. Xalqaro turizm. O'quv qo'llanma. TDIU 2007 y. 65 b.

Toshkent shahri va Toshkent viloyati hisoblanadi. Rayonning jug'rofiy sharoitlarini o'rganish, uning iqtisodiyoti, transport sharoitlari, mavjud me'moriy obidalar turizmning xamma turlarini rivojlantirish uchun universal imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Xalqimizning moddiy ma'naviy va madaniy yodgorliklari, zamonaviy madaniyat, poytaxt viloyatining hozirgi xayotini ko'rsatadi. Toshkent turistik rayonning jalb kiluvchanligini aniqlovchi asosiy omil bu - xayvonot olami va o'simlik dunyosining xilma xilligi, landshaftlarga boy tabiatи hisoblanadi. Rayonda Tulbug'uz va Chorvoq suv omborlarida dam olish zamonlari tashkil kilingan. Chimyon kompleks bazasida tog' piyoda va tog' chang'i turizmi ancha rivojlangan. Turizmning shahar oldi markazlari Oqtosh, Kumushkon, Yangiobod bo'ladi. Xumson, Bog'iston, Obiraxmat qishloqlariga ulangan Piskom, Kuksiz, Chotqol daryolarining yuqori vodiylari bo'yiga, turistik poxodlarni jo'natish punkti sifatida xizmat ko'rsatadi. Toshkent turistik rayonning turistik markazalarini avtomobil va temir yo'llar tarmoqlari boglab turadi va shu bilan avtomobil va temir yo'l turizmining rivojlanishiga imkoniyat tugdiradi.

Samarqand - Buxoro turistik rayonida boshqaruvni tashkil qilish hududiy birlik Samarqand, Buxoro va qisman Navoiy viloyati hududlari kiritiladi. Bu rayonda turizmning rivojlanishi jahonga mashhur bo'lgan Samarqand va Buxoro me'moriy yodgorliklari tashkil qiladi. Cho'lning issiq iqlimini hisobga olgan holda yagona bosh reja bo'yicha qurilgan Navoiy shahriga qiziqishni aks ettiradi. Xorijiy turizmning rivojlanishi uchun rayonning geografik xolati juda kulay. Zarafshon daryosi voxasi orqali o'tuvchi temir yo'llarning keng rivojlangan tarmog'i, Zarafshon tog' tizmasi orqali o'tuvchi baland bulmagan davonlari va yaxshi yo'llari turistlar foydalanish uchun rayonni yanada imkoniyatliron qiladi.

Xorazm turistik rayonida boshqaruvni tashkil qilish xududiy birligi bo'lib, O'zbekiston shimoli g'arbiy qismi Amudaryoning chop kirgogida joylashgan va Xorazm viloyati hududini egallaydigan qismi kiritiladi. Hududning turistlar foydalanish asosini Ichan qal'a me'moriy qo'riqxonasida joylashgan Xivaning tarixiy-me'moriy yodgorliklari tashkil qiladi..

Bundan tashqari Xivadan janubi sharqda Sho'rko'l ko'li bor. Rayondan mavjud a'loqa yo'llari yaxshi rivojlangan. Hududda boshqaruv tizimi infrastrukturasi yaxshi rivojlangandir.

Jizzax turistik rayoni boshqaruvni tashkil qilish birligi bo'lib, Sirdaryo va Jizzax viloyati hududlari kiritiladi. Rayon yaxshi transport yo'llari bilan ta'minlanganlik va tabiiy resurslarning boyligi bilan ma'muriy boshqaruvga asos solinishiga sabab bo'ladi.⁷.

Qarshi - Termiz turistik rayoni boshqaruvni tashkil qilish birligi bo'lib Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlari kiradi. Shahrisabz, Kesh, Termizning tarixiy-me'moriy arxeologik yodgorliklar, Kitobdag'i astromik kenglik stantsiyasi turizm rivojlanishiga asosi bo'lib xizmat qiladi. Qashqadaryo, Surxandaryo va Amudaryo qirg'oqlarida turizm va dam olish zonalari tashkil kilingan. Tog turizm bazasi Xisor tog' tizmasiga asoslangan.

O'zbekistonning yana bitta rayoni - O'rta Qoraqalpoq rekratsion o'zlashtirilishi mumkin. Bu rayonning hududida o'zlashtirilishiga komunikatsiya bilan kurollanish va kulaylik bo'yicha ahamiyatga molik ishlarni talab qiladi. Bu erda ekskurstsion ob'ektlar:

Tuproq qal'asi, Bernut qal'a, Gildursun, Kat shaharchasi joylashgan. Shu bilan bir vaqtida bu areologik yodgorliklar Xorazm tsivilizatsiyasiga bo'lgan yodgorliklarga kiradi va turizmning aniqlangan resurslari sifatida Xorazm turistik rayonining tarixiy-me'moriy kompleksidan ajralmas hisoblanadi.

1.2. Turizm infratuzilmasi tushunchasi va unga ta'sir qiluvchi omillar

Turizm sohasining rivojlanishini turizm infratuzilmasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Turizm infratuzilmasi XIX asr oxirlarida hozirgi mamlakatlar iqtisodiyotida endigina shakllanayotgan edi. Bugunga kelib ushbu infratuzilma dunyoning uchinchi ko'p daromad keltirayotgan sohasiga aylanganligi hech kimga

⁷ A.N.Norchoev. Xalqaro turizm. O'quv qo'llanma. TDIU 2007 y. 72 b.

sir emas. Bu sohani o'rganish davr taqozosi desak bo'ladi. Bugungi kunda turizm industriyasi dinamik ravishda rivojlanayotgan xizmatlar xalqaro savdosi turi bo'lib kelmoqda.

“Turizm infratuzilmasi”ga turizm tashkilotlari, turistlarga ko'rsatiladigan joylar, mehmonxonalar, ovqatlanish tarmoqlari, transportlar, yo'llar va turizm bo'yicha mutaxassislar kiradi.

Hozirgi kunda respublikamizda turizm infratuzilmasini jahon andozalariga javob beradigan qilib tartibga keltirish uchun ancha mablag' ajratish kerak. Turim infratuzilmasi iqtisodiy yoki siyosiy umumiyligi tuzilishni tarkibiy qismlarga bo'lib, yordamchi, bo'ysunuvchi harakterga ega va umumiyligi tuzilmaning bir tekisishlashini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yetarli infratuzilma turlarining asosiy nuqtalarini quyidagicha guruhashimiz mumkin: hududiy qo'l mehnati va kerakli vosita; tunash komplekslari (otel, motel, kemping); suvning, asosan ichiladigan suvning tahminlanishi; kanalizatsiya, telekommunikatsiya; yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarining tahminlanishi; sog'liqni saqlash tizimining bo'lishi; xavfsizlik jihatidan kerakli manbalarni tahminlaydigan transportlar; portlar, ishonchli temiryo'l; tarixiy yodgorliklar va an'analarni himoya qiladigan dasturlarning chiqarilishi; shu bilan birga atrof-muhit nihimoya qilish; madaniy ko'rsatuvlari tartibi va o'qish joylari, kutubxona, muzey, teatr, xususiy va davlatga tegishli madaniy markazlarni qurish; piyodalarning shovqinga, changga, tumanga qarshi tadbirdarini ishlab chiqish, yashil joylar va chiroyli bog'larning barpo qilinishi; piyodalarga va velosipedchilarga mo'ljalangan yo'llarni, imoratlarni, skameykalarni va damolish joylarini, axlat tashlash joylarini tartibga keltirish; turizmni kasb qilgan insonlarni o'qitish va o'z-o'zini rivojlantiruvchi imkoniyatlarning yaratilishi; tabiiy ofatlardan saqlanish tadbirdari, o't o'chirish xizmatlari.

Oxirgi 10-20 yil davomida dunyo bo'yicha xorijiy turistlar sonining o'rtacha yillik o'sish surhati 5,1%, valyuta tushumlarining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7 % ni tashkil etdi. Umumjahon turistik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra 2005 yil

dunyoda 704 mln. turist qayd etilgan, xalqaro turizmdan tushgan daromadlar 463 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi (xalqaro transport xizmatlarini hisobga olmagan holda). Umuman 1950 yildan 2005 yilga qadar xalqaro turizmdan tushgan yillik valyuta hajmi 145 marta o'sgani qayd etildi.

Mutaxassislar xulosasiga ko'ra, turizmnинг rivojlanishi bundan keyin ham davom etadi. Har xil hisoblarga tayangan holda 2015 yilda turizm sohasi yirik eksport sohasiga aylanishi kutilmoqda. Agar turizm hozirgi o'sish surhatida davom etsa, 2015 yilda 937 mln. kishini tashkil qiladi. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra xalqaro turizm rivojlanishi asosida quyidagi omillar yotadi:⁸

- iqtisodiy o'sish va ijtimoiy jarayon;
- transport vositalarining rivojlanishi;
- rivojlangan davlatlarda ishchi va xizmatchilar sonining ko'payishi va ular moddiy va madaniy saviyasining oshishi;
- mehnat intensifikatsiyasi va mehnatkashlar ta'tilining uzayishi;
- davlatlararo munosabatlar va madaniy aloqalar rivojlanishi shaxslararo aloqalarning mintaqqa va mintaqalararo miqyosida kengayishi;
- xizmatlar sohasining rivojlanishi;
- texnologiya rivojlanishi (aloqa va h.k.);
- chegara to'siqlari, valyuta almashuvi va chet gachiqarish to'siqlarining kamayishi, qog'ozbozlikning qisqarishi.

Dunyo bo'yicha turizmnинг ahamiyati doimiy ravishda o'sib kelmoqda. Bu turizmnинг iqtisodiyotga bo'lган bevosa ta'siri natijasidir. Turizm infratuzilmasi ayrim davlatlar iqtisodiyotida muhim vazifalarni bajarib kelmoqda:

1. Valyuta manbai, bandlikni ta'minlash vositasi va to'lov balansi muammosini yechishda xizmat qilmoqda.
2. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko'rsatkichi ko'tarilmoqda.

⁸Боголюбов В.Си др.Экономика туризма: Учебное пособие. - М.: Академия, 2005,- 92 с.

3. Iqtisodiyot diversifikatsiyasi hamda turizmga xizmat ko'rsatuvchi yangi sohalar paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

4. Turizm sohasida bandlik o'sishi bilan, aholi daromadlari va millatning boyligi ortmoqda.

Bugungi kunga kelib turizm Mustaqil Hamdo'stlik davlatlarida rivojlanayotgan sohaga aylandi. Turistik faoliyatning hamma sohalar, davlat tarmoqlari saviyasi, tur biznes paydo bo'lishi, yangicha ishslash taklifining kengayishi va maxsuslashuvni chuqurlashtirish bo'yicha izlanishlar davom etmoqda.

Foyda maqsadini ko'zlagan turizm tashkilotlari, marketing xizmatlari, mehmonxona, transport xizmatlari, oziq-ovqat xizmatlari, chakana savdo do'konlari va boshqa turli vositalar kabi bir-biridan farqli xizmatlar turizm infratuzilmasining bir bo'lagi hisoblansa, foydasining qanchasini turistlardan, qanchasini hamkorlik asosida olinganligiga bog'liqdir. Turizm infratuzilmasi, iqtisodiyotning agrosanoat kabi boshqa industriyalariga foyda keltiruvchi bir tarmoqdir. Ushbu xususiyati bilan turizm infratuzilmasi sarmoya va foyda keltiradigan tarmoq hisoblanadi. Turizm infratuzilmasining boshqa sohalar bilan xizmat qilish aloqasi mavjud, ya'ni:

- turizm infratuzilmasi – rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga juda katta foyda keltiruvchi soha bo'lmoqda;

- turizm infratuzilmasi ishimkoniyatlari yetarli rivojlanmagan davlatlar uchun ish joylarini yaratish, ishsizlikning o'sib borishiga katta to'siq bo'layotgan sektorga aylanmoqda;

- turizm infratuzilmasi davlatlar va mintaqalar o'rtasida, ekologik va madaniy muloqot orasida vositachilik qilgan xizmat mehmondo'stlik industriyasidir;

- turizm infratuzilmasi o'z yaratuvchi manbalarini buza oladigan industriya xarakterini o'zida aks ettira oladi.

Bundan asosiy maqsad turizmnинг tabiiy ijtimoiy zaxiralarini vayron qilish emas, balki bu manbalarning samarali siyosatini rivojlantirishdan iboratdir.

Iqtisodiyotda turizm sohasi alohida industriya hisoblanadi. Turizm infratuzilmasida jismoniy mehnat orqali mahsulot ishlab chiqarilmaydi, unda faqat xizmat ko'rsatiladi. Turizm infratuzilmasi 4 asosiy omillardan tashkil topadi⁹. Bular: transport; mehmonxona; animatsiya faoliyatları (hordiq chiqaruvchi va dam oldiruvchi); turistik tashkilotlar.


Transportning turizmdagi ahamiyati. Joy va makon o'zgartirish, turizmning asosiy xususiyatlaridan biridir. Chunki, sayohat bo'lmasa turizm haqida so'z yuritish mumkin emas. Shu sababli, transport joy o'zgartirish harakatining ro'yobga chiqishiga imkon yaratib, turizm industriyasining paydo bo'lishi va rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi.

XVIII asrdagi industriya inqilobidan keyin transport vositalaridagi jadal rivojlanish zamonaviy turizmning tug'ilishiga, uzoq masofada joylashgan turistik markazlarning ochilishiga imkonyaratdi. Turizm sohasida transportning ahamiyati quyidagicha guruhlantiriladi:

1. Transport, biror davlatda joylashgan turistik markazlarning qulay ziyorat qilinishiga imkoniyat yaratadi, chunki mazkur mintaqalarda turistik resurslarga ega bo'lsa ham ularni osonlikcha ziyorat qilish imkonini beradigan vosita bo'lmasa, ularni tomosha qilish, ko'rish va ulardan foydalanish mumkin bo'lmaydi. Shu sababli, turizm infratuzilmasi rivojlanishi birinchi navbatda transport vositalarining rivojlanishiga bog'liq. Boshqa tomondan, turizm rivojlanishi transport vositalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Chunki, turizm infratuzilmasi rivojlangan sari mavjud ehtiyojlarni qondirish uchun transport vositalari ham rivojlanadi. Shu sababli turizm va transport orasida uzviy aloqa mavjud.
2. Transport vositasi tashqi turizmdan mamlakat xazinasiga valyuta olib keluvchi manba hisoblanadi.


⁹Боголюбов В.С и др. Экономика туризма: Учебное пособие. - М.: Академия, 2005,- 112 с.

3. Transport vositalari rivojlanishi natijasida tezkor jamoat transportiga imkon beradigan vositalarning qo'llanilishi, vaqt va moliyaviy ahvoli o'rtacha bo'lган insonlarning ham turizm harakatlariga qatnashishini yaratadi. Shunday qilib, transport vositalari rivojlangan sayin turistik harakatlar miqdor va sifat jihatdan yaxshilanadi, natijada o'rta tabaqada yashovchi xalq uchun ham sayohat qilish imkoniyati yaratiladi. Transport turlari 4 ta guruhda tasnifланади: temir yo'l, suvyo'li,havo yo'li va avtomobil transportlari.



1.2.1-rasm.Turizmda infratuzilmasidagi transport turlari

Dunyo bo'yicha 2014-yilda sayohatga chiqqan turistlarning 51% havo transportida, 6% suv transportlaridan. 41% avtomobil va quruqlik transportlaridan, 2% temir yo'l transportidan foydalanan ekan.



1.2.2-rasm. 2014-yilda dunyo bo'yicha xalqaro turizmda transport turlarining ulushi¹⁰.

1.3. O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha chora – tadbirlari

Turizm infratuzilmasi deganda - turistlarning turistik zahiralaridan bemalol foydalanishini ta'minlovchi binolar tizimi, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan yo'llar, turizmning xilma – xil korxonalari va ularni kerakli darajada ishlatish, hamda turizm korxonalarining ishlatilishini ta'minlash tushuniladi. Bular - avto yo'l, temiryo'l, havo yo'llari, dengiz va daryo yo'lari harakatini tartibga soluvchitizimlar, issiqlik, elektr va telefon aloqalari bilan ta'minlash va boshqalardir. Ma'lumki, turistik resurslarsiz turizmning o'zi bo`lmaydi. Mazkur resurslardaturizm infratuzilmasini yaratilsagina biz kutgan haqiqiy turizm bo`lishimumkin. Masalan, tabiiy - iqlim, tarixiy - madaniy, ma'rifiy, ijtimoiy -maishiy turizm obektlari bo`lgan hududlarda kerakli infratuzilmani yaratishmuhim masalalardan biri hisoblanadi. Yo'l qurilishi sohasini olib ko`raylik. Albatta turistlar oddiy yo`lovchilar emas. Ularning sayohati zamontalablariga mos ravishda bo`lishi uchun yo'llarning sifat darajasi qay

¹⁰Butun jahon turizm tashkilot imam'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan

ahvolda ekanligini bir o`ylab ko`raylik. Yo`llarning ravonligiga qarab ham turistlar oqimining oshishi mumkin. Yo`llar, bozorlar mamlakatning iqtisodiy va madaniy ahvoli qay darajada ekanligidan dalolatdir. Turist - eng avvalo damoluvchidir. Yillab toplagan pulidan harj qilib kelgan turist charchoq nima ekanligini bilmasligi kerak. Uning iste'molchi ekanligini bu yerda ham zinxor unutmasligimiz lozim. Bular nafaqat avtomobil yo`llari, shuningdek, temir yo`llarga ham ta'luqlidir. Poyezd relslaridan tortib, uning ichidagi kommunikatsiya va muhandislik tarmoqlarining barchasi – turizm infratuzilmasining tarkibiy bir qismi, xolos. poyezd kupelaridagi issiqlik darjasи, yozda va qishda bir xil temperaturadagi holat - turizm xizmatining yanada ko`tarilishidagi omillardir. Turist ibridoiy jamiyat kishisi yoki qay darajada rivoj to`gan mamlakatligidan qatiy nazar uning oddiy fuqarosi emas. U yuksak darajada xizmat ko`rsatilishini istovchi (va bunga haqli ham)iste'molchidir. Mana shuni hech qachon turizmdan katta foyda ko`raman degan turoperatorlar esdan chiqarmasliklari kerak. Nafaqat avtomobil yoki temir yo`llar, hatto turistlar uchun maxsus ajratilgan yo`llar ham talab darajasida bo`lishi lozim. Bunday yo`llar alohida ajralib turishi va turistlarga halal beradigan darajada bo`lmasligi lozim.

Mehmonxona va shunga tenglashtirilgan joylardagi kommunikatsiya va muhandislik tarmoqlarida ham muammolarning bo`lmasligi turizm sohasining yangi pog`onalarga ko`tarilishida o`ziga xos o`rinni egallaydi. Issiqlik tarmog`i ishlamaydigan, elektr quvvati past, kanalizatsiya tarmog`i berkib qolgan yoki ichimlik suvi talab darajada bo`lmagan mehmonxonalarda turistlarning bo`lishini bir tasavvur qilib ko`raylik. Mana shular va boshqalar turizm ishining rivojlanishidagi kechiktirib bo`lmash va tezda hal qilinishi zarur bo`lgan muammolardir. Ayniqsa, olis, tog`li joylar, katta yo`l trassalari, qishloqlarda bu kabi muammolarni hal etish - oson ish emas, mashaqqatli vazifadir. Hozir respublikamizning avtomobillar qatnaydigan trassalari, shohbekatlari qay darajada. Trassalardagi shohbekatlari bo`lmagan joylarni ga pirmasa ham bo`ladi. Turistlarga tez tibbiy yordam beriladigan va xojatlarini chiqaradigan ob'ektlarning

o`zi yo`q hisob, borlari ham talab darajasida emas. Achchiq bo`lsa ham aytish kerak: joylarda bunday ob'ektlarning barpo etilishiga e'tibor past darajada. Bu nafaqat turistlar, hatto,katta yo`l trassarida qatnovchi vatandoshlarimiz uchun ham muhim ahamiyatga molik vazifa hisoblanadi. U umumxalq manfaati, davlatimiz manfaatidir. Shunday ko`rsatkich bilan turizm rivojlanishiga kim kafolat beradi. Bir vaqtlar ipak yo`li o`tgan joylardagi muhim maskanlarda karvonsaroylar bo`lgan. Karvonsaroylar savdo karvonlari uchun hozirgi vaqlardagi mehmonxonalar vazifasini o`tagan. Unda karvonlar va savdogarlar tunaydigan xonalardan tortib, ichimlik suvi, ovqatlanish xizmati va boshqa xizmatlar (tabiblar, mashshoklar, qo`riqchilar) o`z joyiga qo`yilgan. Yurtimiz ko`hna tarix va madaniyatga ega. Hozirda kanalizatsiya deb ataluvchi tarmoq bundan uch ming yil avval xizmat ko`rsatganligini isbotlovchi dalillarni arxeologik olimlarimiz tadqiqot ishlarida ko`rsatib berishgan. Ichimlik suvi sardobalarda saqlanganligi, maxsus kulolchilik quvurlari - orqali suv olib kelinganligi va chiqindi suvlar ham shunday quvurlardan chiqib ketganligini isbotlovchi manbalar etarli. Keyingi yillarda respublikamizda turizm infratuzilmasini zamon talabiga moslashtirish maqsadida ko`pgina ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 - yil 2 - iyundagi "Buyuk ipak yo`li"ni qayta tiklashda O`zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora – tadbirlar to`g`risida"gi farmoni bu ishni yuksak darajaga ko`tarish muammolarini hal qilishda o`z o`rniga ega bo`ldi. Farmon g`oyat muhim xalqaro turizm yo`nalishi - "Buyuk ipak yo`li"ni qayta tiklash, bunga xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish, shuningdek, zamonaviy turizm siyosatini vujudga keltirishga asosiy maqsadni qaratdi. Buning uchun esa quyidagi o`ta muhim va dolzarb masalalar o`z yechimini to`ishi lozim. Masalan, «Buyuk ipak yo`li»dagi shaharlar - Samarcand, Buxoro, Xiva va Toshkentda xalqaro turizm bo`yicha maxsus ochiq iqtisodiy mintaqalar tashkil etish, mazkur shaharlarning aeroportlari va temir yo`l vokzallarida turistlar uchun bojxona rasm - rusomlarining xalqaro me'yorlarga mos soddalashtirilgan tartibi, shuningdek,

tranzit turistlar uchun maxsus bojxona joylari joriy qilish ko`zda tutildi. Ushbu shaharlarda yangi tashkil etiladigan turistik tashkilotlar va korxonalar barpo etilgan paytdan boshlab, dastlabki foydani olgunga qadar o`tadigan davrda, lekin ro`yxatga olingan sanadan keyin uzog`i bilan uch yil mobaynida barcha turdag'i soliqlardan ozod qilish imkoniyati tug`ildi. Shuningdek, xalqaro turizmni rivojlantirish bilan bog`liq barcha masalalarni o`z vaqtida hal etish uchun javobgarlik «O`zbekturizm» MK, «O`zbekiston havo yo`llari», «O`zbekiston temir yo`llari» kompaniyalarining, Ichki ishlar va Tashqi ishlar vazirliklarining, chegara va bojxona xizmatlarining rahbarlari zimmasiga yuklatildi. Mazkur farmonni amalga oshirish yuzasidan Respublika Vazirlar Mahkamasi 1995 - yil 3 - iyunda «O`zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamонавиу инфраструктури барпо етиш чора – тадбирлари тоғ'рисида»ги qarori e'lon qilindi. Qaror prezident farmonini to`ldirib, yana quyidagi muhim masalalar amalga oshirilishi takidlاب о'tildi: tegishli tashkilotlar bilan birgalikda turistlarni avia va temir yo`l transporti orqali tashishda imtiyozlar berish tartibini ishlab chiqish, maxsus bojxona hududlarini tashkil etish, ularni zamонавиу назорат техникаси bilan jihozlash vazifasi yuklatildi. Qarorda turizm tizimidagi xususiy lashtirilayotgan ob'ektlardan tushgan mablag`lar «O`zbekturizm» MK bo`linmalarini qayta qurish va texnika bilan jihozlah maqsadida «O`zsayohatinvestbank» ka o'tkazish belgilab berildi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish turistik zahiralardan rejal ifoydalanish jarayonining asosiy bosqichidir. Turistik zahiralar qancha maftunkor bo`lmisin, turistning bu tabiat in'omlaridan foydalanishi bularga bemalol yeta olishiga bog`liq. Agar mazkur tabiat in'omiga yo`l yoki so`qmoq bo`lmasa ushbu ob'ektga ko`plab turistlarni jalb qilish qiyin bo`ladi. Ba'zi hollarda esa buning iloji yo`q. Misol uchun Venesueladagi Anxel sharsharasiga (dunyodagi eng katta sharshara, balandligi 140 m.) turistlar nisbatan kam boradi. Chunki, u erga borish uchun na yo`l bor, na samolyot qo`nadigan maydon bor. Ushbu sharsharaga katta qiyinchiliklar bilan tezoqar daryo bo`ylab qayiqda borish mumkin. O`zbekistonimizning Qashqadaryo viloyati Yakkabog` tumanidagi Hisor tog`i

etagida joylashgan Tosh qo`rg`on qishlog`i va Amir Temur g`origa olib boriladigan yo`ldagi Ho`kizburun sharsharasiga turistlar borilishini yo`lga qo`yilsa, ayni muddao bo`lar edi. Ya`ni, bu joylarda turizm infratuzilmasini barpo etish uchun katta sarmoyatalab etiladi.

Xorazm viloyatida turizm sohasida ko`rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash, ijtimoiy infratuzilma ob`ektlarini qurish va rekonstruktsiya qilishga yo`naltirilgan qo`shimcha loyihalarni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining “Xorazm viloyatida turistik infratuzilmaning qo`shimcha ob`ektlarini barpo etish to`g`risidagi” 2013 yil 20 sentyabrda 261-sonli Qarori qabul qilindi: Unda quydagilar o`z aksini topgan:

1. Xorazm viloyati hokimligi, O`zbekiston Respublikasining Xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo`mitasi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, «O`ztransgaz» aktsiyadorlik kompaniyasi, «O`zbekturizm» milliy kompaniyasi hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorazm viloyatining sanoat salohiyatini, infratuzilmasi va turizm sohasini rivojlantirish, obodonchilikni va aholi suv ta`minotini tubdan yaxshilash bo`yicha kompleks dasturiy choratadbirlarni ishlab chiqish to`g`risida» 2012 yil 25 oktyabrdagi F-3921-son farmoyishi bilan tuzilgan Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish bo`yicha ishchi guruhning:

-davlat mulkinining bo`sh turgan ob`ektlarini investitsiya majburiyatları qabul qilish sharti bilan sotish;

-Urganch shahri, O`zbekiston ko`chasi manzilida joylashgan, «O`ztransgaz» aktsiyadorlik kompaniyasining «Urganchtransgaz» sho`ba korxonasiga tegishli bo`lgan sobiq «Bolalar dunyosi» do`koni binosini baholash tashkiloti tomonidan aniqlangan 970,42 mln so`m miqdoridagi qiymat bo`yicha, 275,0 mln so`m miqdoridagi dastlabki to`lovnii to`lagan va qolgan so`mmanni choraklar bo`yicha teng ulushlarda taqsimlab 5 yilda bo`lib-bo`lib to`lagan holda

«Infinbank» xususiy ochiq aktsiyadorlik tijorat bankiga uning Xorazm viloyatidagi filialini tashkil etish uchun sotish;

-Yangi turizm ob'ektlarini 2013—2015 yillar davrida Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturiga kiritish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsh.

2. Investorlar jahon standartlariga muvofiq bo'lgan, kamida uch yulduzli mehmonxona darajasida munosib xizmat ko'rsatish sifatiga ega bo'lgan zamonaviy mehmonxonalar, shuningdek ushbu qarorga davlat mulki ob'ektlari bazasida xizmatlar sohasining boshqa ob'ektlarini barpo etish bo'yicha investitsiya majburiyatlarini o'z zimmasiga oladilar;

-sobiq «Bolalar dunyosi» do'konining binosini sotishdan tushgan mablag'lar so'mmasi 275,0 mln so'mini binoning balans qiymatini qoplash uchun «O'ztransgaz» aktsiyadorlik kompaniyasining «Urganchtransgaz» sho''ba korxonasiga va 695,42 mln so'mini xayriya tarzida — Xiva tumanida joylashgan va Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi doirasida buziladigan ko'chmas mulk ob'ektlarini buzish xarajatlarini qoplash uchun Xorazm viloyati hokimligining maxsus hisob raqamiga yo'naltirish yo'li bilan taqsimlanadi.

3. O'zbekiston Respublikasining xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi «Kengashlar uyi» binosini (Xiva shahri, Markaz ko'chasi, 1-uy manzilida) va FHDYo binosini sotishdan tushgan mablag'larni Xiva tumanida joylashgan va Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi doirasida buziladigan ko'chmas mulk ob'ektlarini buzish xarajatlarini qoplash uchun Xorazm viloyati hokimligining maxsus hisob raqamiga o'tkazish.

4. O'zbekiston Respublikasining xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Xorazm viloyati hokimligi balansda saqlovchilar hamda «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi bilan birgalikda investitsiya majburiyatları to'liq hajmda bajarilgandan keyin, ob'ektga mulk egasi huquqini berish sharti bilan investitsiyalar kiritish jadvalini tasdiqlagan holda

investorlar bilan ushbu qarorga 1-ilovada ko'rsatilgan davlat mulki ob'ektlari bo'yicha tegishli oldi-sotdi shartnomalarini tuzsish.

5. Xorazm viloyati hokimligi balansda saqlovchilar bilan birgalikda – ushbu qarorda ko'rsatilgan davlat mulki ob'ektlarining investorlarga berilishi-qabul qilinish;

O'zbekiston Respublikasi «Ergeodezkadastr» davlat qo'mitasi bilan birgalikda — ushbu qarorga davlat mulki ob'ektlariga kadastr hujjatlari rasmiylashtirilish;

O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi bilan birgalikda — ta'mirlash-qurilish ishlarini amalga oshirish uchun investorlarga zarur bo'lgan ruxsatnomalarini loyiha-smeta hujjatlari tasdiqlanish;

O'zbekiston Respublikasining Xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birgalikda — Urganch shahri FHDYosining yangi bino qurilishi tugallangunga qadar foydalanilmayotgan davlat mulki binosida vaqtincha joylashtirilishini (ijara to'lovisiz) ta'minlash.

6. «O'ztransgaz» aktsiyadorlik kompaniyasi «Urganchtransgaz» sho''ba korxonasi tomonidan «Infinbank» xususiy ochiq aktsiyadorlik tijorat banki bilan sobiq «Bolalar dunyosi» do'konini binosining oldi-sotdi shartnomasi tuzilishini ta'minlash.

7. Xorazm viloyati hokimligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi hamda Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filialining Urganch shahri, Yangi Urganch ko'chasi, 18-uy manzilida joylashgan ma'muriy binosini Xorazm viloyati davlat soliq boshqarmasiga tekin berish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilish.

8. Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Urganch filiali joriy yilning sentyabr oyi oxirigacha ushbu qarorning 7-bandida ko'rsatilgan ko'chmas mulkni belgilangan tartibda topshirsin, Xorazm viloyati davlat soliq boshqarmasi balansga qabul qilsin va undan maqsadli foydalanishini ta'minlash.

9. «O'zbekenergo» Davlat aktsiyadorlik kompaniyasi va «O'zkommunxizmat»

agentligi Xorazm viloyati hokimligi hamda tanlab olingan investorlar bilan birgalikda ikki hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ushbu qarorga ilovalarda ko'rsatilgan barpo etiladigan mehmonxonalarini zamonaviy energiya samaradorligi yuqori bo'lgan isitish tizimlari va energiyani tejaydigan bug'qozonlari bilan jihozlash bo'yicha asoslangan takliflar kiritish.

I- BOB. MINTAQА TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA TEMIR YO'L XIZMATLARINING TUTGAN O'RNI.

2.1. Xalqaro miqyosda turistlarni temir yo'l transportida tashish

Turistlarni temir yo'lida tashish turizm transport ta'minotining samarali vositasi hisoblanadi. Sayohatning yuqori shinamliligi, yuqori tezlik va maqbul narxlarda turistlar guruhini ixcham joylashtirish bu transport turini kichik va o'rta masofalarga harakatlanishda raqobatbardoshligini oshiradi. Temir yo'l transportidan ichki va chegara turizmini, shuningdek, sayr-u tomosha, ekskursion safarlar va dam olish kunlari turizmni tashkil etishda ko'proq foydalaniadi. Temir yo'llar paydo bo'lgan vaqtłari yoq sayohatda chinakkam inqilob yasagandi. Kemalar va otlarga qaraganda yuklarni tez va arzon tashib berilishi taklif etilgandi. Shimoliy Amerika va Yevropada keng temir yo'l tarmoqlari rayon markazlarini temir yo'l stansiyalariga aylantirdi. Temir yo'llar nafaqat diliyonlarni (yo'lovchi tashiydigan ot-arava turi), balki 1790-yildan boshlab fransuzcha "otel" so'zi bilan ataladigan tavernilarning ham o'rnini egalladi. Tabiiyki, qulaylik uchun oteller temiyo'l stansiyalari yonida qurila boshladи.

Temir yo'llar yuqori safarbarlik namunasini ko'rsatib, mamlakatning uzoq chekkalari bilan transport aloqasini yo'lga qo'yishga imkon berdi. Temir yo'llar qurish qishloq xo'jaligidan so'ng yirik biznesga aylandi.

Aholi markazlaridan olisdagi kurortlarga sayohatga borish uchun temir yo'llarga ehtiyoj kattaligi aniqlandi. Temiryo'l kompaniyalari Yevropa, Kanada, AQSHda otellar qurdilar. Canadian Paclfis va Canodion National temir yo'llari hozirgacha ko'p sonli kurort va otellarni boshqarmoqda.

Keyingi yillarda poyezdlar xavfsizroq, tez va shinam bo'lib qoldi. 1900-yilga kelib, temir yo'llar zamonaviy barcha maishiy qulayliklar –shu jumladan, elektr yoritish, bug' bilan ishlash, uqlab ketadigan vagonlar, vagon restoranlar va

hatto vannaxonalarni taklif qilishi mumkin edi. Afsonaviy Sharqiy ekspress “qirollar poyezdi va poyezdlar qiroli” deb ataladi. U jahondagi eng mashxur poyezd. O’z vaqtida barcha hashamatni o’zida mujassam etgan bu poyezd hozir ham romantik sayohat uchun alohida ko’rk bo’lib qolmoqda. 1883-yilda ishga tushgan Sharqiy ekspress Parijdan badavlat kishilarni xushmanzara yo’nalish bo’yicha Istanbulga yetkazib kelgan sayohat 4 kun vaqtini olgan. Lekin shoxona sharoitda kechgan, a’lo darajada ovqatlanish va ideal servis xizmati tufayli unda vaqt tez o’tgan. Dunyodagi zamonaviy turistik poyezdlarni ”g’ildirak ustidagi otellar” deb atashayapdi. Bunda ko’roq temir yo’l bo’ylab safarlar sayohatning asosiy maqsadi qilib qo’yiladi, uxlاب ketadigan vagonlar odatda ,o’rinlar soni sakkiztadan oshmaydi, har bir ku’eda ikkitadan ko’p odam yashamaydi.

Poyezd kategoriyasiga qarab, ku’p bir kishi uxmlaydigan ikkita kravat bilan yoki bitta ikki kishilik krovat konditsioner, yozuv stoli, telefon. Televizor bilan jihozlanadi. Hojatxona va dush xonasi butun vagonga yoki alohida bitta-ikkita ku’e uchun bo’ladi. Turistik poyezd tarkibiga yana bir nechta vagon –restoranlar , vagon-salon (kutubxona,karta o’yini yoki so’zlashuv, dam olish uchun foydalilanadi), konferens –vagon (u ham lektoriy,diskoteka yoki video salon), shuningdek,” bolalar vagoni” yoki ”harakatli o’yinlar zali” kiradi.

Temiryo’l sayohati xorijda dam olishning juda ommoviy turidir. Turizm bu turining ashaddiy ishqibozlari nemislar, inglizlar, shveysarlar hisoblanishadi. Agar Buyuk Britaniya va Shveysariya aholisi o’z mamlakatlari bo’ylab sayohat qilishni afzal bilishsa, nemislar butun Yevropani aylanib chiqishib, hatto Rossiyagacha yetib kelishdi.

Nemis turistlari orasida parovoz sayohati, ayniqsa, alohida hasham hisoblanadi. Temir yo’l tizimi havaskorlarini ham hisobga olganda eng mashxur ”Orient Express”(”Sharqiy Ekspress”) hisoblanadi. XIX –XX asr mashxur stili asosida tarkib to’gan.

Keyingi yillarda temir yo’l turizmiga Amerika qit’asida ham qiziqishning o’sishi kuzatilaya’ti va uch davomiy yo’nalish yetakchilik qilayapdi. Bular:


”Trans-Kanada” (Vankuverdan Monrealga Vinnipet va Ottava orqali o’n sutkalik poyezd), ”Trans-Amerika ”(Washingtondan Los Anjelesga Chariston,Yangi Orlean,San –Antanio,El- Paso va boshqalar orqali 12 sutkalik) ”Trans –Atlantika ” (Managuadan Puetra-Montga Guayakil, Limu va Santyago orqali). Shunisi qiziqlik, bu turistik poyezdlar Amerikada ham ”Orient Express” deb ataladi. Norvegiyada maxsus poyezdda turistik yo’nalishlar juda mashxur, ularda dunyodagi eng go’zal joylarni tomosha qilish mumkin.

Temir yo’l yo’nalishlari Hindiston va Indoneziyada ham mavjud. Indoneziyaga tashrif buyuruvchi turistlarga ajoyib safar –”Indoneziya Bug’ lokomotivlari” taklif etiladi. Unda dunyodagi eng yirik tor yo’lda harakatlanadigan lokomotivlar va vagonlar kolleksiyalarini tomosha qilish mumkin. Poyezdda yo’lovchilarni tashish tizimi reysdan tashqari zarurat tug’ulganda komplekslanadigan va qatiy belgilangan yo’nalish bo’yicha oraliq vaqt va harakat jadvaliga so’zsiz amal qiladigan reyslarga bo’linadi. Reysli poyezdlar shaxar atrofiga, mahalliy va olisga qatnovchilarga bo’linadi. Shaxar atrofida qatnovchi poyezdlar qa’tiy jadval asosida viloyat yoki o’lka hududlarida harakatlanadilar. Poyezd vagonlariga odatda 1500 gacha yo’lovchi sig’adi. Shundan, 1000 tachasi o’rindiqqa ega. Poyezd mahalliy stansiyalarda to’xtab o’tadi, vagonlarda o’rinlar raqamlanmagan. Mahalliy poyezdlar stansiyalar orasida bitta temir yo’l bo’ylab qatnaydi. Odatda, ular 700 km masofagacha qatnaydi . Olisga mo’ljallangan poyezdlar 700 km dan ziyodroq masofaga qatnaydi. Yil bo’yi qatnovi tezkor va mavso’miy tezkor (yozgi), mavso’miy va yil bo’li qatnovchi yo’lovchi poyezdlarga bo’linadi. Poyezdlar va vagonlar ham har xil toifalarga bo’linadi. Poyezdlar toifasi: shahar atrofiga qatnovchi, yo’lovchi, tezkor, tez yuruvchi poyezdlar.

Vagonlar toifasi: plaskart, o’tirgichli, kupeli, uxbab ketadigan, vagon restronli. Standart temiryo’l safarlari shartli ravishda uchta mustaqil toifaga bo’lish mumkin:

- Bir kunlik

- Nodavomiy (2-3 sutka)
- Ko'p kunlik (5 kun va undan ortiq)



2.1.1-rasm. Temir yo'l safarlari toifalari.

Bir kunlik safarlar ertalab boshlanadi va o'sha kuni kechqurun tugaydi. Yo'lda turistlar vagan resrtonlar stoli atrofida joy oldilar. Yo'l davomida ular nafaqat tamaddi qiladilar, balki sirk va estrada artistlarining chiqishlarini ham tomosha qiladilar. Turistlar belgilangan stansiyalargacha olib boriladilar. U yerda ular uchun maxsus dastur tayyorlangan bo'ladi. Bu ekskursiya safari yoki tabiat qo'yniga sayr bo'lishi mumkin.

Ko'p kunlik safar xilma xilligi bilan farq qiladi. Turistik firma buyurtmaga asosan turistlar temir yo'l biletlarini sotib oladi. Ushbu biletlar individual yoki guruh uchun bo'lishi mumkin. Turistik poyezdlarni tashkil etish yo'naliш harakati va jadvalga muvofiq tuzilgan shartnomaga asosida amalga oshiriladi.

Yuqorida qayd etilganidek, temiryo'l transporti bilan turistlarni tashish muntazam qatnovchi tezyurar hamda yo'lovchi poyezdalarida va maxsus turistik poyezdlarda amalga oshiriladi. Keyingi paytlarda Yaponiya, Fransiya, Braziliya Janubiy Korea, Rossiya, Yevropa mamlakatlarida turistlarni tashish uchun tezkor temir yo'llardan foydalaniлmoqda. Turistlarni tashish uchun kor'usli qiyalashtirilgan va osma magnitli takomillashtirilgan poyezdlardan

foydalanimoqda. 1997-yil xalqaro temir yo'l tashkiloti Yevropa yo'naliishlarida kor'usli qiyalashtirilgan poyezdlardan foydalanish sezilarli ko''aytirilishini e'lon qildi.Uzoq muddatga mo'ljallangan prognozlarga ko'ra, 2010-yilga kelib Yevropa bo'y lab yuqori tezlikda yuradigan temir yo'l transportida sayohatlar, aviatsiyada 20% bo'lgan holda, 23% ni tashkil qiladi. Bunga misol tariqasida shuni ko'rsatish mumkinki, hozirda Parij -Lion yo'naliishida tezyurar poyezdlardan foydalanuvchi yo'lovchilar soni samolyo'tda uchadiganlardan 9 marta yuqoridir.

2.2. O'zbekiston Respublikasida temir yo'l transporti faoliyatida turistlarning temir yo'l xizmatlaridan foydalanishi


O'zbekistonda temir yo'lida tashish O'zbekiston Respublikasi 1999 yil 15 aprelda qabul qilingan "Temir yo'l transporti haqidagi" Qonuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.06.2000 yilda qabul qilingan "O'zbekiston temir yo'llari" Davlat hissadorlik temir yo'l kompaniyasi nizomiga qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi" Qarori bilan tartiblanadi. Xalqaro yo'llarda, jumladan temir yo'l transporti bilan yo'lovchi tashishning umumiyligi qoidalari 1970 yil 22 oktyabrdan tuzilgan "Sayohatga shartnoma tuzish bo'yicha xalqaro konvensiya", 1921 yil 20 aprelda imzolangan "Tranzitning statusi va erkinligi haqidagi konvensiya", 1961 yildagi "Bern konvensiyasi" va boshqa ko'plab xalqaro meyoriy ho'jjatlar doirasida hukumatlararo kelishuvlar orqali tartibga solinadi. O'zbekiston temir yo'l tarmog'ini modernizatsiya qilish bo'yicha 2013 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan kompleks dastur qabul qilingan. Bu poyezdlar parkini yangilash, yo'llarni qayta tiklash, ixtisoslashtirilgan sanoat korxonalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish kabi chora-tadbirlardir. Shuningdek, ushbu dasturda biz uchun va butun mintaqaga uchun yangi bo'lgan yuqori tezlikda harakatlanadigan yo'lovchi poyezdlar qatnovini yo'lga qo'yish ham ko'zda tutilgan. Bu temir yo'l transporti va unga nisbatan odamlarning munosabatini tubdan o'zgartiradi. "O'ztemiryo'lyo'lovchi" tashkiloti 31.12.1997

yilda tashkil topdi va 28.06.2002 yilda Ochiq Aktsiyadorlik Jamoasi “O’ztemiryo’lyulovchi» ga aylandi. “O’ztemiryo’lyo’lovchi” OAJ temiryo’l yo’lovchi transporti ishini yanada yaxshilash, yo’lovchilarga xizmat ko’rsatish madaniyatini ko’tarish, yo’lovchilarni tashish boshqaruvini takomillashtirish va temir yo’l transporti boshqarmalarini bozor iqtisodiyoti muomilalarini tashkil qilishda sharoitlar yaratish uchun tashkil topdi.Tashkilotning markaziy boshqarmasi quyidagi manzil bo'yicha joylashgan: Toshkent shaxar, Turkiston ko'chasi 7-uy. Tashkilot asosiy faoliyati bo'yicha 7 ta regional filiallardan iborat: Toshkent, Farg'ona, Samarcand, Xorazm, Surxandaryo, Qashqadaryo va Orolbo'yi, O'zbekiston Respublikasining o'sha viloyatlarida joylashgan. Undan tashqari, tashkilot quyidagi filiallardan ham iborat:

- passajir poyezdlarida yo’lovchilarga xizmat ko’rsatish;
- passajir vagonlarini jihozlash va xizmat ko’rsatish filiali;
- temiryo’l agentstligi;
- turizm, reklama va marketing tadqiqotlar agentligi;
- mahalliy yo’nalishda yo’lovchilar tashishini tashkil qilish servis–ekspress filiali;
- davlatlararo yo’nalishi va kommertsiya ishlarida yo’lovchilar tashishini tashkil qilish filiali.

Jamoaning ustav bo'yicha kapitali 51,4 mlrd. so'mni tashkil qiladi va bular 500 nominal miqdorida aks ettirilgan 102 812 890 ta oddiy aktsiyalarga bo'lingan. Aktsiya kapitali quyidagicha bo'lingan:

- “O’zbekiston temir yo’llari” DAK – 51%;
- Jamoada mehnat qiluvchi kollektiv va “O’zbekiston temir yo’llari”DAK xodimlari – 2%;
- Chet el investorlari – 47%.



2.2.2-rasm. O'zbekiston temir yo'llari DAK aktsiya paketing taqsimlanishi haqida ma'lumot¹¹

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" OAJ ning ishchilar miqdori 01.09.2006 yilda 4204 odamni tashkil qildi. Umumiylar vagonlar parki 01.09.2006 yilda 765 vagondan iborat edi. 2005 yilning oxirida Toshkent markaziy vokzalini ta'mirlash ishlari tugatildi. Yo'lovchilarga servis xizmatarini oshirish maqsadida yangi vokzal binosida 6 ta juda qulay zallar tashkil qilindi:

- Yo'lovchilarni xamma kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida vokzal binosining markaziy xollida zamonaviy talablarga javob beradigan ma'lumotlar tablosi qo'yildi;
- Xollning birinchi qavatida bolalar kafesi va maydonchasiidan iborat bolalar zali joylashgan;
- Uyin zali orqasida dam olish uchun qulay 25 joyli ona va bola xonasi joylashgan. Shuningdek, ikkinchi qavatda xarbiy xizmatga chaqirilganlarni xizmat ko'rsatish uchun komendatura tuzildi;
- Markaziy kirishning ung tarafida 6 ta kassadan iborat kassa zali joylashgan. Kassalar yo'lovchilarni tashish avtomatik boshqaruvidan iborat yangi "Ekspress-3" terminallardan tashkil to'gan. Ikkinci qavatda ishbilarmon kishilar uchun Internet klub, kafe bardan va boshqa kompleks xizmatlardan iborat biznes zal joylashgan. Quyidagi kompleks bir vaqtida 65 kishiga xizmat ko'rsata oladi.
- Kutish zali tomon yurganizda ung tomonda VIP zal joylashgan, u 2 qavatni egallagan. VIP zal kompleksiga 40 kishilik restoran, 30 kishilik dam olish zali,

¹¹DAK O'zbekistontemiryo'llari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan

dam olish uchun yumshoq kreslolik qishki bog' kiradi.

Zaldan passajirlar poyezdlar perroniga chiqish va ikkinchi qavatdagi kutish zaliga kirish mumkin;

- Kutish zali birinchi va ikkinchi qavatlarda joylashgan. Ular yulovchilarga kerakli ma'lumot berish uchun video va tele apparatura bilan ta'minlangan, shuningdek 1 soat davomida 500 kishiga xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha zallardan (bar, tualet, chekish xonalaridan) tashkil to'gan;
- Kutish zalidan chiqishda bir vaqtida 500 ta yo'lovchini qabul qiladigan, poyezdlarni kutish uchun dam olish joylari berk zal-perron joylashgan;
- Vokzal binosining chap tarafida delegatsiyalarni qabul qilish muxtasham zali joylashgan;
- Markaziy xollning chap va ung tarafida yo'lovchilar uchun qulay o'tirish joylari va fontanlardan iborat ichki xovli joylashgan.

2.2.1-jadval. O'zbekiston Respublikasida transport qatnovi yo'llarining uzunligi¹²

	2012	2013
Temir yo'llari (foydalilaniladigan uzunligi) - jami	5,8	5,8
Shu jumladan:		
Umumfoydalanadigan	4,2	4,2
Idoraviy	1,6	1,6
Qattiq qoplamlari avtomobil yo'llari - jami	44,3	44,2
Shu jumladan:		
Umumfoydalanadigan	42,0	42,0
Idoraviy	2,3	2,2
Tramvay yo'llari	82,5	82,5
(ikki yoqlama hisobda), km		
Trolleybus liniyalari (ikki yoqlama hisobda), km	38,0	38,0
Metropoliten yo'llari (ikki yoqlama hisobda), km	36,1	36,1
Magistral quvur yo'llari - jami	14,3	14,3
shu jumladan:		
gaz quvurlari	14,2	14,2

¹² Статистический сборник «Туризм в Узбекистане» Ташкент 2014 г

neft quvurlari	0,1	0,1
----------------	-----	-----

To'la ta'mirlash ishlari tugagandan sung vokzal o'rta hisobda 50 ming ta mijozlarga xizmat ko'rsatishi mumkin bo'ladi. Xozirgi kunda xamma keluvchi va ketuvchi yo'lovchilarni inobatga olganda markaziy Toshkent vokzali o'rta hisobda 29 ming kishini qabul qilish imkoniyatiga egadir. O'rta hisobda bir kunda vokzaldan 6 ta xalqaro va 20 ta maxalliy poyezdlar jo'natilmoxda va kutib olinmoqda. Markaziy Toshkent vokzali qoshida "Ekspress-3" yangi terminallar bilan jixozlangan, shuningdek, yo'lovchilar uchun kompleks xizmatlar ko'rsatadigan yangi tranzit kassalrai qurildi.

Markaziy Toshkent vokzali xamma O'zbekiston Respublikasi fuqrolari va mehmonlarini kutish uchun tayyor."O'ztemiryo'lyo'lovchi" OAJ faoliyatini mukammallashtirish hozirgi kunda tashkilot tomonidan kompleks tadbirlar amalga oshmoqda:

- boshqaruv strukturasi va ishlab chiqarishni takomillashtirish;
- vagonlar parkini yangilash;
- yo'lovchilarga progressiv xizmat ko'rsatish tizimini kiritish;
- bozor kon'yunkturasi, hohish va talablarni inobatga olga holda, qulay narx siyosatini olib borish;
- marketing tадqiqotlarni kengaytirish.

Natijada 2000 – 2006 yillarda umuman olganda 35 ta vagon xarid qilindi

- 25 vagon – Germaniya mahsuloti;
- 4 vagon, 2003 yil Toshkent passajir vagonlarini remont qilish zavodi va Tver vagon qurish zavodi hamkordikda yig'ilgan vagonlar olindi;
- 6 ta juda qulay 61 – 4441 modelli vagonlar "Registan" tezyurar elektropoyezdi uchun.

Undan tashqari, 2003 yil fevraldan Toshkent – Samarqandn yo'nalishi bo'yicha № 49/50 elektropoyezdi yurishni boshladи. Yez paytida Chimyan va Chorvoq dam olish zonalarini bog'lovchi Toshkent – Xodjikent telektropoyezda yurishi mo'ljalangan.

Yangi va mustaqil O'zbekiston Respublikasiga, uning tarixi, madaniyati, qadimiy tarixiy obidalariga qiziqish kuchayganini inobatga olgan holda "O'ztemiryo'lyo'lovchi" OAJ da turizm, reklama va marketing tadqiqotlar agentligi mavjud bo'lib, uning asosiy vazifalaridan biri "Buyuk ipak yo'li" shaxarlari bo'y lab temir yo'l transportida turistlarni tashish va xamma turistik xizmatlarni ko'rsatishdir.

Temir yo'l yo'lovchi transporti faoliyatining asosi halqaro hamda, shaharlar va mintaqalararo ichki tashishlar, ya'ni tashish bo'yicha xizmat ko'rsatishdan iborat.

Mamlakatimizda transport turlani bo'yicha nafaqat yo'lovchi tashish, balki yuk tashishga ham e'tibor qarailadi. 2.2.1-jadvalda mamlakatimizda jo'natilgan yuklar miqdori transport turlari bo'yicha aks ettirilgan.

2.2.1-jadval. O'zbekiston Respublikasida transport turlari bo'yicha yuk tashish¹³

	2012	2013
Jo'natilgan yuklar,mln.t	1329,3	1387,1
Shu jumladan transportda:		
Temir yo'l	61,5	63,7
Avtomobil	1203,3	1258,3
Quvur yo'li	64,5	65,0
Havo yo'li, ming	24,0	22,0
Yuk aylanmasi, mlrd. t-km	83,3	83,7
Shu jumladan transportda:		
Temir yo'l	22,7	22,9
Avtomobil	27,5	29,2
Quvur yo'li	33,0	31,5
Havo yo'li, mln. t-km	121,9	116,3

Yugoridagi jadval ma'lumotlarini tahlil qilishdan shunga amin bo'lamizki,

¹³ Статистический сборник «Туризм в Узбекистане» Ташкент 2014 г

2012 yilda jami 1329,3 mln tonna yuk tashilgan shundan eng ko'p miqdor avtomobil transpotiga to'g'ri keladi, ya'ni 1203,3 mln tonna, temir yo'l transporti orqali tashilgan yuk miqdori bo'lsa 61,5 mln tonnaga teng bo'lган. Bundan tashqari mamlakatimizda 64,5 mln. tonna quvur transporti va havo yo'li 24 ming tonnaga teng. 2013 yili jami tashilgan yuk miqdori 1387,1 mln tonna bo'lган va bu 2012 yilga qaraganda 57,8 mln tonnaga ortiq hisoblanadi. Temir yo'l transportida tashilgan yuk miqdori 2013 yilda 63,7 mln tonnani tashkil qilgan va bu ko'rsatgich 2012 yildagidan 2,2 mln tonnaga ortiq bo'lган.

Mamlakatimiz bo'yicha 2013 yilda jami yuk aylanmasi 83,7 mlrd. t-km ni tashkil qilgan bo'lib shundan, 22,8 mlrd. t-km temir yo'l transportiga, 29,2 mlrd. t-km avtomobil transportiga, 31,5 mlrd. t-km quvur transportiga va 116,3 mln. t-km havo transportiga to'g'ri keladi.

2.2.2-jadval. O'zbekiston Respublikasida transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi¹⁴

	2012	2013
Tashilgan yo'lovchilar, mln. Kishi	6705,1	6989,2
Shu jumladan transportda:		
Temir yo'li	15,9	17,4
Avtomobil	6606,0	6895,1
Trolleybus	0,3	0,4
Tramvay	14,9	14,7
Metropoliten	65,5	59,2
Havo yo'li	2,5	2,4
Yo'lovchi aylanmasi, mlrd. yo'lovchi-km	89,2	94,7
Shu jumladan transportda:		
Temir yo'li	3,4	3,7
Avtomobil	78,2	83,3
Trolleybus	0,01	0,01
Tramvay	0,05	0,05
Metropoliten	0,5	0,4

¹⁴ Статистический сборник «Туризм в Узбекистане» Ташкент 2014 г

Havo yo'li	7,0	7,2
------------	-----	-----

2.2.2-jadvalda O'zbekiston Respublikasida transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi aks ettirilgan bo'lib, 2013 yilda jami tashilgan yo'lovchilar soni 6989,2 mln. kishini tashkil qilgan. Bu aynan transport turlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, temir yo'l transportida 17,4 mln. kishi, avtomobil transportida 6895,1 mln. kishi, trolleybusda 0,4 mln kishini, tramvayda 14,7 mln. kishini, metropolitenda 59,2 mln. kishini va havo yo'llarida 2,4 mln kishini tashkil qilgan.

Shu jumladan, 2013 yilda mamlakatimizdagi jami yo'lovchi aylanmasi 94,7 mlrd. yo'lovchi-km ni tashkil qilgan bo'lib shundan, temir yo'l transportida 3,7 mlrd. yo'lovchi-km, avtomobil transportida 83,3 mlrd. yo'lovchi-km, trolleybusda 0,01 mlrd. yo'lovchi-km, tramvayda 0,05 mlrd. yo'lovchi-km, metropolitenda 0,4 mlrd. yo'lovchi-km va havo yo'llarida 7,2 mlrd. yo'lovchi-km ni tashkil qilgan.

2014 yilning 29 yanvar kuni "O'zbekistontemiryo'llari DATK majlislar zalida kompaniya ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining 2014 yil yakunlari va 2015 yildagi rejalar" ga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi.

Unda kompaniya bosh menejeri-bosh muhandisi Sherzod Ismatullaev ommaviy axborot vositalari xodimlariga 2014 yilda tarmoqda amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar va joriy yilgi rejalar haqida keng ma'lumot berib o'tdi. 2014 yilda kompaniyaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi barcha ko'rsatkichlarni ortig'i bilan bajarishga va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga erishilgan. Hisobot davrida kompaniyaning temir yo'lbekatlaridan 80 mln. Tonna yuk tashildi, bu 2013 yilning hisobot davriga nisbatan 105 foizni tashkil etdi. Tashishlarni amalga oshirish hisobiga hisobot davrida yuk aylanmasi hajmi 22,9 mlrd. tonna-km ni tashkil etdi. Hisobot davrida qariyb 20 mln. yo'lovchi o'z manzillariga yetkazib qo'yildi. 2014 yilda 329,6 mln. AQSH dollari miqdorida eksport xizmatlari ko'rsatildi.

Hisobot davrida kompaniyaning sanoat korxonalarida 305,1 mlrd. so'mlik

sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Aholiga 55,3 mld. soʻmlik pullik xizmatlar koʼrsatildi. Ish oʼrinlarini tashkil etish va mamlakat aholisi bandligini tahminlash maqsadida kompaniya tomonidan 611 ta yangi ish oʼrinlari tashkil qilindi.

Oʼzbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga muvofiq kompaniyaning moliyalashtirish manbalari hisobidan 669,9 mln. Dollarlik kapital mablagʼlar oʼzlashtirildi.

Qayd etilgan mablagʼlar kompaniyaning quyidagi strategik ahamiyatga ega loyihalarini „Marokand-Qarshi“, „Qarshi-Termiz“ temir yoʼl uchastkalarini elektrlashtirish, „Toshkent-Samarqand“ yoʼnalishida yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar harakatini tashkil etish, „Ikkiyoʼllik Jizzax-Yangier“ elektrlashtirilgan yangi temir yoʼli qurilishi, temir yoʼllarni reabilitatsiya qilish, yuk va yoʼlovchi vagonlari parkini yangilash, lokomotivlarni modernizatsiya qilish, „Quyuv mexanika zavodi“ shoʼhba korxonasida harakatdagi tarkib taʼmir bazasini rivojlantirish, vagon qurilishini tashkil etish va quyuv ishlab chiqarishni rekonstruktsiya qilishni amalga oshirishga yoʼnaltirildi. 54 lokomotivlarni modernizatsiya qilish, 1 ming 488 ta yuk vagonlarini modernizatsiya qilish va qayta tiklash, 650 ta yuk va 30 ta yangi yoʼlovchi vagonlarini qurishishlari amalga oshirildi.

Bundan tashqari, Oʼzbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 iyundagi PQ-1985 Qaroriga asosan Angren-Pop elektrlashtirilgan yangi temir yoʼl liniyasi qurilishi loyihasini amalga oshirish maqsadida 2014 yil prognozi 387,20 mln. AQSH dollarni tashkil etgan holda, hisobot davrida 403,5 mln. AQSH dollar oʼzlashtirildi.

2015 yilda ham kompaniya tomonidan yuk va yoʼlovchi tashish hajmini, eksport xizmatlari hajmini oshirishga, yangi ishoʼrinlarini yaratish kabi muhim vazifalar belgilab olingan.

Sohada 2015-2016 yillarga moʼljallangan Samarqand-Buxoro temir yoʼl liniyasida elektrlashtirish loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyiha qiymati 400 million AQSH dollarini tashkil etadi. Mazkur loyiha bajarilishi jarayonida 700 dan

ziyod, xizmat ko'rsatishni boshlashi bilan esa 200 dan ziyod yangi ish o'rirlari yaratiladi. Elektrlashtirish ishlari tugatilgach Toshkentdan–Buxorogacha yana 2 ta ana shunday yuqori tezlikda harakatlanuvchi zamonaviy elektropoyezd qo'yiladi.

Temir yo'lida tashish shartnomasiga muvofiq yo'l yo'lovchi va uning yukini manziliga yetkazib berish, hamda unga chiptasiga muvofiq joy berish majburiyatini, yo'lovchi esa yo'l haqini va agarda yuki normadan ko'' bo'lsa uni tashish haqini belgilangan tarif bo'yicha to'lash majburiyatini oladi. Tashish shartnomasining tuzilganligi chiptaolinishi bilan ro'y beradi.

Tashish qiymatiga qo'yidagilar kiradi:

- tashish tarifi bo'yicha yo'lida ma'lum masofaga borish haqini to'lash;
- platskarta bahosi (yo'lovchining turli klassdagi yotoq vagonlarda joylashish huquqi);
- yo'lida baxtsiz hodisalar ro'y berishi mumkin bo'lgandagi sug'urta haqi;
- biletlarni oldindan sotish xizmati uchun haq to'lash va h.k.

1. Ayrim hollarda xizmatlar haqiga turli mahalliy yig'imlar va qo'shimcha to'lovlar, masalan, chiptani uyga yoki ishxonaga yetkazib berish haqi ham kirishi mumkin. Qo'shimcha xizmatlarga (ovqat, ichimliklar, choyshab) alohida haq to'lanadi. Temir yo'l transportida xizmatning sifati poyezdning shakli (pochta, yo'lovchi, tezyurar, firma poyezdlari) va joylashtirish klassiga (umumiy vagon, qattiq, yumshoq platskart, shuningdek I klass yotoq vagon) bog'liq.

Keyingi paytlarda Rossiyada liniyali, aylanma va radial ekskursion yo'nalishlar bo'yicha maxsus turistik poyezdlarda charter tashishlar amalda oshirilmaydigan bo'ldi. Bunga asosiy sabab narxning qimmatlashuvi va vaqt uzoqligi sababli turistlaring zerikishlari hisoblanadi.

Yevropada poyezdlar quyidagicha tasniflanadi:

TD – qitalaro ekspress;

JC – xalqaro ekspres;

JCL – tezyurar superekspres;

TEE – firma ekspressi;

EC – tezyurar ekspress va h.k.

** Ekskursiyalar amaliyotida tashrif buyuruvchilarni tashish shahar temir yo'l transportida (metro va tramvay) amalga oshiriladi. Yaponiya va Frantsiya amaliyoti ko'rsatishicha, yuqori tezlikdagi temir yulning xalqaro tashishlari aviatsiya bilan bemalol raqobatlasha oladi. Guruxli temir yo'l turlari. Tashish qoidalari: jadvalli poyezdlardagi (umumiyligida foydalanish poyezdlari) temir yo'l sayohatlari ko'pincha guruxli sayohat shaklida, ya'ni turistlar sayohatining maxsus shakllantirilgan guruhlarida tashkil qilinadi. Bunday sayohatlarda yo'lovchi poyezdlaridan turistlarni dam olish joyiga olib borish va qaytadan olib kelish uchun foydalaniлади. Dam olish joyida xizmat ko'rsatish mehmonxona, turistik baza yoki boshqa joylarda amalga oshirilishi mumkin. Doimiy jadvalli yo'lovchi poyezdlarida turistlarni tashish –transport guruxli marshrutini tashkil qilishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi.

Turistik marshrutlarni tuzish

Xar bir turistik tashkilot tomonidan ma'qullangan jadvallarga muvofiq holda turistik guruhlarning yo'nalishi va qabuli haqida turistik tashkilotlar bilan kelishuvni amalga oshirish;

Turistik - ekskursion tashkilotlar bilan temir yul transport korxonalari orasidagi o'zaro aloqalarni amalga oshirish.

2.2.3-rasm. Transport turi ta'sirida sayohatni tashkillashtirish talablari

Yo'lovchi poyezdida joylarni band qilish va biletlarni oldindan sotish. Joylarni band qilish o'zaro kelishilgan rejalar asosida amalga oshiriladi. O'z poyezdlari mavjudligida yoki to'g'ri platskart bilan chiptalarni rasmiylashtirish imkoniyati borligida tranzit poyezdlariga guruhlarni olish rejalashtirilmaydi.

Joylarni band qilishga buyurtmalarni qabul qilish poyezd junatilishidan 45 sutka

oldin, yo'l hujjatlarini rasmiylashtirish esa - temir yo'l xodimi ko'rsatgan muddatda bajariladi. Agar turistik guruxlarning bir poyezddan boshqasiga o'tishlari ko'zda tutilsa, ularga to'g'ri platskartali chiptalar butun yo'l uchun sotilishi kerak.

To'g'ri platskarta. To'g'ri platskartali chiptalarni rasmiylashtirishda o'tirish joyiga ega bo'lgan qattiq yo'lovchi poyezdida yurish uchun butun yo'lga bitta chipta olinadi. Unga 2 ta komposter solinadn: birinchisi (ignali) poyezd nomerini va boshlang'ich jo'natish stantsiyasidan jo'nashvaqtini ko'rsatadi, ikkinchisi va keyingilari (mastik) poyezd nomerini va qaytadan o'tirish punktlaridan jo'nash vaqtini ko'rsatadi. Ko'rsatilgan chiptaga poyezd va vagon kategoriyasiga mos yo'lga qo'shimcha to'lov kvitansiyasi beriladi. Qaytadan o'tirish punktlaridan chiqib ketish uchun rasmiylashtirilgan qo'shimcha to'lov kvitansiyalarining yuqori ung burchagida quyidagi ko'rinishdagi shtamp qo'yiladi:

TO'GRI platskarta

_____ (stantsiya)

_____ oy

20—yil

Kassir-----/

Imzo

2.2.4-rasm. To'g'ri plastkarta kvitansiyasi ko'rinishi

Mahalliy sharoitlarga bog'lik ravishda o'tirish joyiga ega bo'lgan qattiq vagonlarda yoki shaxar atrofidagi poyezdlarda qayta o'tirish punktlaridan oldin yoki keyin o'tishga ruxsat beriladi. "Borish" va "kelish" chiptalarining qiymati bir vaqtning o'zida to'lansa, ikkita guruxli chipta beriladi. Buyurtma berilganda har bir buyurtma qilingan joyga qancha chipta olinishidan qat'iy nazar bir marta belgilangan miqdordagi komission yig'im to'lanadi. Kuzgi, qishki va bahorgi ta'til vaqtida ya'ni 1 oktyabrdan 15 maygacha, o'quvchilar uchun turistik guruxlarni tashkil qilganda, temir yo'l o'quvchilarga yumshoq 4 ta va 2 ta o'rinali kupe (SV)

vagonlaridan tashqari hamma turdag'i vagon va poyezdlar tarifining 50% miqdorida chegirma beriladi. Uzoqqa yuruvchi va shaxar atrofi yo'nalishidagi poyezdlarda o'quvchilarining tashkillashtirilgan guruhlarining (10 kishi va undan ko'p) yurishi uchun o'kuv muassasalari sayohat maqsadlari ko'rsatilgan buyurtmalar beradi: birinchisi u yerga borish uchun, ikkinchidan - u yerdan qaytib kelish uchun. U quyidagi shaklda bo'ladi:

O'quvchilar uchun guruxli buyurtma shakli:

O'quv muassasi nomi _____ Sana _____

Nº _____ » _____

I oktyabrdan 15 may davr oralig'ida o'quvchilar uchun 50% chegirmali chiptaolish uchun

GURUXLI BUYURTMA

*Stantsiya (vokzal) boshligiga _____
(nomi)*

stantsiyamizgacha guruxli imtiyozli chipta berishingizni so'rayman.

*O'quvchilar guruxn _____ kishidan iborat
(Yozuv bilan)*

*chiptani qabul qilish ----- gurux boshlig'iga yuklatilsin
(familiyasi)*

*(uni xujjatining nomi va raqami: talabalik guvohnomasi, shaxsiy
guvohnoma, maktab ma'lumotnomasi va boshqalar)*

MUXR

2.2.5-rasm. O'quvchilar uchun guruhiy sayohat buyurtmasi ko'rinishi

Buyurtmaga binoan chipta kassalari o'quvchilarga qattiq umumiyo'ylo'vchi vagonlarda yurish uchun maxsus imtiyozli chipta (50 % chegirmali) va yuqori kategoriyali poyezd va vagonlarda yurish xollari uchun chegirmali qo'shimcha to'lov kvitantsiyalari (GU-57 shakl) beradi (Tarif qo'llanmasi №5}. 1991 yildan

boshlab TYV "Ekspress 2" turistik tashishlarnirejalshtirishning yangi tizimini joriy qilgan. Bu tizimning asosiy jiqatlari quyidagilardan iborat:

1. Rejalshtirish yiliga 2 marta yarim yilga amalga oshiriladi.

Rejalshtirilayotgan yilning 1-yarim yilligiga tashkilot buyurtmalari temiryo'1 bo'limlariga joriy yilning 1 oktyabrigacha berilishi kerak, temir yo'l bu buyurtmalarni TYV ga GVTs ga kompyuterga kiritish uchun beradi. 15 noyabrdan turistik tashkilotlar o'z temir yo'l bo'limlaridan 1-yarim yil uchun qaysi buyurtmalar tasdiqlanganligini bilib olishlari mumkin, Turistik tashkilotlar 15 noyabrdan boshlab va poyezd jo'nashidan 60 kun oldin o'z buyurtmalarini tasdiqlashlari shart. Tasdiqlangandan keyin turistik byuro xodimiga parol kvitantsiyasi beriladi, joylar esa kompyuter xotirasida saqlanadi. Agar joyni band qilish uchun buyurtma tasdiqlanmasa, ular kompyuter xotirasidan chiqarib yuboriladi. Chitalar sotib olish buyurtmalari poyezd jo'nashidan 45 sutka oldin beriladi. 2-yarim yillik uchun turistik tashkilotlarining reja buyurtmali 1 martgacha qabul qilinadi. 15 aprelda turistik tashkilotlar javobni olishlari va o'z muddatida buyurtmani tasdiqlashlari mumkin.

2. Turistlar guruxini tashishni rejalshtirishda buyurtmalarda 5 ta variantdan iborat poyezdni almash tirish ko'rib o'tilgan bo'lishi kerak. Bunda birinchi ko'rsatilgan poyezd asosiysi hisoblanadi, qolgan to'rttasi esa variantlari.

3. Rejalshtirilgan tizimda liniya bo'yicha turist guruxlarini olish mumkin.

Foydalanilmagan temir yo'l chiptalarini qaytarib berish tarif qo'llanmasiga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Agar foydalanilmagan chiptalar korxona, firma, tashkilot va muassasalar tomonidan temir yo'l stantsiyasi cassalariga poyezd jo'nashidan 7 sutka oldin berilsa, ularga yo'l kira haqining to'liq qiymati qaytariladi. Agar foydalanilmagan chiptalar poyezd jo'nashidan 3-7 kun orasida qaytarib berilsa, u holda yo'l kira xaqi qiymatining 90% i qaytarib beriladi, agar chipta poyezd jo'nashiga 3 sutka va undan kam vaqt qolganda to'shirilsa, yo'l kira qiymatining 80% i qaytarib beriladi. Gurux boshlig'i tomonidan bitta yoki bir nechta chiptalarni to'lashda individual yo'lovchilar uchun maxsus qoidalar

amal kiladi; agar chipta poyezd jo'nashidan 24 soat oldin berilsa, uning qiymati tulaligicha qaytariladi, 6-24 soatgacha - 90%, 6 soatdan kamroq bo'lsa, chipta qiymatining 75% i qaytarib beriladi. Agar qaytib kelish uchun yo'l chiptalari olingan punktlarga poyezd jo'nashidan 3 sutka oldin to'shirilsa, u holda yo'l kira haqining to'liq qiymati qaytariladi, undan kam kun qolganda topshirilsa, chipta narxining 75% i qaytariladi.

Agar bitta "to'g'ri platskartali" chipta olingan joyiga poyezd jo'nashidan 6-24 soat oldin qaytarib berilsa, yo'lovchidan hamma qo'shimcha to'lovlarini o'z ichiga olgan bиринчи jo'nash staniyyasidan qayta o'tirish stantsiyasigacha va undan tushirish stantsiyagacha bo'lgan yo'l kira haqining 10 % i miqdorida to'lov olinadi. Agar bu muddatdan keyin qaytarib berilsa, 25 % i olinadi. Agar guruxli chipta bo'yicha jo'nab ketayotganlar soni to'liq bo'lmasa, gurux boshlig'i poyezd jo'nagunga qadar jo'natish stantsiyasi (vokzal) boshlig'iga buni qayd etish uchun gurux chiptasini ko'rsatishi shart. Foydalanilmagan chiptalar kassaga qaytarib berilishi kerak.

Naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha olingan guruxlarli buyurtmalarning yo'l xujjatlari uchun to'lovlarini qaytarib berish faqat chipta olgan tashkilotning hisob schetida so'rov tartibda amalga oshiriladi. Foydalanilmagan shaxar atrofi chiptalari uchun pul qaytarib berilmaydi. Yo'nalishda temir yo'l guruxlariga xizmat ko'rsatish jo'natuvchi va qabul qiluvchi turistik tashkilotlar orasidagi kelishuvlar, kelishuvga ilova qilinadigan turistlar guruxining kirish jadvali asosida amalga oshiriladi. Yo'naltiruvchi turistik tashkilot qo'yidagilarni bajarishi kerak:

- qo'yilgan muddatdan 10 kun oldin telegramma orqali guruxlarning qachon kirishini, turistlar sonini, yetib borish sanasini va vaqtini, poyezd va vagon nomerini tasdiqlashi; gurux boshlig'ini turistlar ro'yxati bilan ta'minlashi;
- marshrutga guruxlarni faqatgina qaytib kelish uchun chiptalar mavjudligida yoki qabul qiluvchi tashkilot tomonidan bunday chiptalar bilan ta'minlash haqidagi tasdig'i bo'lgandagina yo'naltirishi kerak.

Qabul qiluvchi turistik firma esa quyidagilarni tashkillashtirishi kerak:

- turistlarni kutib olish, o’zining (ijara) avtotransporti bilan, oziq-ovqat bilan ta’minlashi;
- keladigan turistlar soniga mo’ljallangan (telegrammada ko’rsatilgan) yetarli joylarni tayyorlab qo’yishi;
- o’z shaxrining oziq-ovqat korxonalari bilan xizmat ko’rsatish uchun kelishuv tuzish va beriladigan taomlarning o’z vaqtida berilishi hamda sifatini nazorat qilib turishi;
- to’liq hajmda ekskursion xizmat ko’rsatish dasturi bilan hamda naqd pul bilan amalga oshiriladigan hisob-kitobga qo’shimcha xizmat (qo’shimcha ekskursiyalar, ko’ngil ochar tadbirlar va boshqalar) bilan ta’minlashi.

Turistlarni kutib olish va ekskursiya qildirish poyezdlarning kelishva ketish jadvaliga muvofiq ravishda hohlagan vaqtda amalga oshirilishi kerak (bu kelishuvda ko’rsatib o’tilgan bo’lishi shart). Temir yo’lchilarimiz oldida ham ulkan vazifalar turibdi. Xususan, Jizzax – Yangier yo’nalishi bo'yicha elektrlashtirilgan ikki yo’lli temir yo’l tarmog’i va Yangier – Farhod yo’nalishi bo'yicha elektrlashtirilgan bir yo’lli temiryo’l tarmog’i qurilishini nihoyasiga yetkazish, Maroqand – Qarshi va Qarshi – Termiz yo’nalishi bo'yicha strategik ahamiyatga ega bo’lgan temir yo’l tarmoqlarini elektrlashtirish loyihalarini amalga oshirishga kirishish zarur. Bu, o’z navbatida, sarf- xarajatlarni 20 foizga kamaytirish va yo’lovchi hamda yuklarni manzilga yetkazish tezligini 1,3 barobar oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, yo’lovchi tashish lokomotivlari parkini yangilash, yuktashish lokomotivlari hamda vagonlarini modernizatsiya qilish va qayta tiklash, temir yo’llarni modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish lozim. Shular qatorida Ispaniyaning ”Talgo” kompaniyasi bilan hamkorlikda Toshkent – Samarqand temir yo’l uchastkasida O’rta Osiyoda birinchi bor bunyod etilgan tezyurar temir yo’l magistralini qurish va foydalanishga to’shirish ishlarining belgilangan muddatlarda yakunlanganini muhim ahamiyat kasb qiladi. O’zbekiston Respublikasi hududida yuklarning ichki va xalqaro tranzitini ishonchli ravishda ta’minlaydigan transport va logistika

tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan izchil ishlarni davom ettirishimiz lozim.

2.3. MINTAQА TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA DAK O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI URGANCH VOKZALINING TUTGAN O'RNI

”O'ztemiryo'lchi” Davlat ochiq aksiyadorlik jamiyati Xorazm filialiga qarashli Urganch vokzali tarixi Ashxobod temir yo'llar boshlig'ining 01.02.1953-yil N-110 buyrug'iga asosan Chorjoy - Urganch temir yo'l bo'linmasining doimiy foydalanishga berilganidan so'ng Urganch stansiyasiga asos solindi va Urganch vokzali tashkil qilindi. 1973-yilgacha Xorazmdan faqat bir yo'lovchi poyezdi Toshkent - Qo'ng'rat kun ora, keyinchalik bo'lsa, har kuni yo'lga qo'yildi. 1973-yil 4-iyunda Xorazmdan birinchi marotaba Ashxobod-Moskva tezyurar yo'lovchi poyezdi o'tdi. Yangi qurilgan temir yo'l liniyasining ochilishi munosabati bilan Urganch vokzalining rekonstruksiya qilish yoki yangidan qurish ehtiyoji yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasi hukumati Urganchda yangi temir yo'l vokzalini qurishga qaror qildi. 1982-yilda bu to'shiriq bajarilib, yangi temir yo'l vokzali foydalanishga to'shirilda.

Bu yangi ikki qavatli zamonaviy bino, asosan, biton va g'ishdan qurildi va uning arxitekturasida Ko'hna Xorazm arxitekturasi mujassam topildi.

Xorazm viloyati Urganch temir yo'l vokzalining texnik ishlab chiqarish tavsifnomasi quyidagicha:

1. Foyalanish maydoni 1680 m^2 bo'lib, Urganch stansiyasining ikkinchi yo'lida joylashgan. Urganch vokzali binosi 1982-yilda ishga tushirilib yo'lovchilarni qabul qilish yo'lga qo'yildi.
2. Foydalilanigan uzunligi 1066 m bo'lgan asosiy yo'ldagi va 900 m bo'lgan yonlama yo'ldagi maxsus 1 va 2 qabul qilish va jo'natish yo'llari yo'lovchi poyezdlarini qabul qilish va jo'natish uchun ixtisoslashgan.
3. 1 va 2 yo'l bilan vokzal binosi oralig'ida yo'lovchilarni poyezdlarga chiqarish

va tushurish uchun foydalanish, uzunligi 825 m bo'lgan 2 ta past plotformasi joylashgan.

4.Urganch vokzali sutkasiga 500 yo'lovchiga xizmat ko'rsatadi, shundan 300 tasi shaxarlararo yo'naliш bo'ylab yo'naladi.

5. Urganch vokzalidan sutkasiga 1 juft yo'lovchi va 3 juft shaxarlararo yo'lovchi poyezdi o'tgan.

Bugungi kunga kelib Urganch vokzali qaytadan rekostruksiya qilindi va ko'plab yo'lovchilarga xizmat qilib kelmoqda. Urganch vokzalini qayta ta'minrlash va uning hududini obodonlashtirish uchun 25 mld. so'mdan ortiq mablag' ajratilgan. Dam olish xonalari, avtomobillar uchun maxsus to*xtrash joylari, passajirlarni kutish va kuzatib qo'yish zallari, hamda VIP zallar barpo etilgan.

Urganch temir yo'l vokzali quyidagi bo'limlarga bo'linadi:

1. Vokzal boshqaruvi
2. Navbatchi boshqaruvchilar (4 nafar xodim)
3. Yuk bo'limi (16 nafar ishchi - xizmatchi)
4. Boshqalar (82 nafar ishchi -xizmatchi)

Urganch temir yo'l vokzali to'liq ta'minlangandan keyin, sutkasiga 1000 nafardan ortiq mijozga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan. Shu bilan birga 80 ta ishchi – xizmatchilar uchun ish o'rnlari barpo qilingan. Yo'lovchi poezdlar soni ko'paydi, jumladan yangi "Toshkent- Urganch -Volgograd" va qo'shimcha "Toshkent – Urganch -Saratov" yo'naliшlari joriy qilindi. Bundan tashqari haftaning har kuni mamlakatimiz poytaxti Toshkent shaxriga "Urganch - Toshkent" va "Shovot-Urganch-Toshkent" yo'naliшlari orqali passajir qatnovi yo'lga qo'yildi.

Urganch temir yo'l vokzalidagi mijozlar uchun shart-sharoitlar yaxshi tashkil qilingan. Bundan tashqari vokzalda passajirlar havfsizligi va ularning yuklarini saqlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Passajirlarning kutish joylari yaxshi jihozlangan, tozaliklarga rioya qilinadi. Lekin ayrim hollarda vokzal

xizmatchilari o'z vazifalarini vaqtida bajarmaslik xolatlari ham kuzatilmogda.

Urganch temir yo'l vokzalining Ko'hna shaharlarimizgacha bo'lgan masofa quyidagi jadvalda berilgan (2.3.1-jadval).

Bu masofalar juda uzoq bo'lsada sifatli xizmat ko'rsatish orqali masofalarni tez bosib o'tib manzilga borish vaqtini sezilmaydi.

	Toshkent	Samarqand	Buxoro	Urganch
Toshkent		344	616	1080
Samarqand	344		250	737
Buxoro	616	250		660
Urganch	1080	737	660	

2.3.1-jadval. O'zbekiston Respublikasi temir yo'l vokzallari orasidagi masofalar (km)¹⁵

Bugungi kunga kelib, deyarli har kuni Urganch shaxridamamlakatimiz poytaxti Toshkent shaxrigacha va Samarqand shaxrigacha yo'lovch poyezdlar qatnovi uzluksiz yo'lga qo'yilgan.Bu nafaqat mamlakat ichki turizmning rivojlanishiga, balki tashqi turizmning rivojlanishi uchun ham katta imkoniyat hisoblanadi. Poytaxtimizga tashrif buyurgan turistlar qadimiy tarixiy shaxrimiz bo'lgan Xivani ko'rish uchun arzon va xavsizroq bo'lgan poyezddan foydalanish hamda,yo'l-yo'lakay Samarqand va Buxoro shaxarlariga ham tashrif buyurush imkoniyatlariga ega bo'lishlari mumkin.Quyidagi keltirilgan jadvalda Urganch shaxridan Toshkent shaxriga va Urganch shaxridan Samarqand shaxriga jo'nab ketuvchi va ulardan Urganch shxriga yetib keluvchi poyezdlarning aniq vaqtini va bilet narxlari keltirilgan (2.3.2-jadval).

¹⁵Muallif tomonidan ishlangan

	Dan	Ga	Kunlar	Jo'nab ketish vaqtি	Yetib kelish	Vagon tipi	Narxi, UZBS
N 056	Toshkent	Urganch	Seshanba,Chorshanba Juma,Yakshanba	19:30	13:05	SV	192 407
						Kupe	102 187
						Plaskart	69 087
N 055	Urganch	Toshkent	Dushanba,Chorshanba Payshanba,Shanba	15:20	10:30	SV	192 407
						Kupe	102 187
						Plaskart	69 087
N 058	Toshkent	Urganch	Dushanba,Payshanba Shanba	19:30	13:45	SV	192 407
						Kupe	102 187
						Plaskart	69 087
N 057	Urganch	Toshkent	Seshanba,Juma, Yakshanba	14:20	10:30	SV	192 407
						Kupe	102 187
						Plaskart	69 087
N 056	Samarqand	Urganch	Dushaba ,Chorshanba	00:05	13:05	SV	150 053
						Kupe	81 022
						Plaskart	55 575
N 055	Urganch	Samarqand	Payshanba ,Shanba	15:20	05:15	SV	150 053
						Kupe	81 022
						Plaskart	55 575
N 058	Samarqand	Urganch	Seshanba,Juma	00:05	13:45	SV	150 053
						Kupe	81 022
						Plaskart	55 575
N 057	Urganch	Samarqand	Yakshanba	14:20	05:15	SV	150 053
						Kupe	81 022
						Plaskart	55 575

**2.3.2- jadval. Urganch shaxri vokzalidan asosiy yo'nalishlarga poyezdlar qatnovi to'g'risida ma'lumot
(2015-yil yanvar holatiga ko'ra)**

Yuqorida aks ettirilgan jadvalda Urganch shaxri vokazidan mamlakatimizning asosiy shaxarlariga poyezdlar qatnovi haqida to'liq ma'lumot aks ettirilgan. Bunga ko'ra, asosiy yo'nalish bunda mamlakatimiz poytaxti Toshkent shaxri hisoblanadi va du yo'nalishga deyarli haftaning har kuni poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Bu o'z navbatida Xorazm viloyatiga Toshkent shaxri orqali keluvchi turistlar va mahalliy yo'lovchilar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishni bevosita tahlil qiladigan bo'lsak, masofaning uzoqligi sababli yo'lovchilar deyarli 18 soat vaqt davomi poyezd vagonlarida o'z vaqtlarini o'tkazishi lozim. Bu vaqt ancha uzoq hisoblanadi, shuning uchun kelajakda iloji boricha yanada tezyuradigan poyezdlar qatnovini joriy qilish va yo'lovchilarni vagondagi vaqtlarini samarali o'tkazish uchun yangi chora-tadbirlar dasturi DAK O'zbekiston temir yo'llari tomonidan ishlab chiqilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 20 martdagি 1940 –sonli „2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish“ to'g'risidagi Qaroriga asosan, Buxoro – Urganch, Samarqand - Urganch va Toshkent – Urganch yo'nalishlari bo'yicha qatnaydigan passajir poezdlari sonini haftasida kamida 3 martaga chiqarish, Urganch – Buxoro – Qarshi - Termiz yo'nalishlari bo'yicha qatnaydigan passajir poezdlari sonini haftasida kamida 2 marta yo'lga qo'yish belgilangan.

Bu chora-tadbirlar natijasida mintaqaga turizmini rivojlantirishda temir yo'l transportining roli oshib boradi va shu bilan birga, temir yo'l infratuzilmasining ta'siri yanada kuchayib boradi.

Xulosa va takliflar

Hozirgi kunda turizm infratuzilmasi jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Bu sohada rivojlangan davlatlarda juda katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Shu sababli turizmni rivojlantirishda ilg'or mamlakatlar modelidan foydalanish va ular erishgan yutuqlarni respublikamiz turizmiga tatbiq etish yo'llarini o'rganish lozimdir.

Shundan kelib chiqqan holda, turizm sohasida davlat boshqaruvi funktsiyasi sifatidagi rejalashtirishning samaradorligi, uni tuzishda quyidagi tamoyillardan foydalanganligiga bog'liq bo'ladi:

- Turizmda xususiy sector rolini oshirish;
- Xususiy mehmonxonalarini ishga tushirish uchun kreditlar ajratish;
- Xalqaro yarmarkalarda surunkali qatnashishni tahminlash;
- Rejashtirishning aniqligi, reja tuzishda istiqbolni aniqligini tahminlovchi zamonaviy metodlar, vositalar, taktika va jarayonlardan foydalanish;
- Rejashtirishning uzlusizligi – bu bir marta bajariladigan emas, balki uzlusiz jarayondir.

60-yillarda jahon turizmida operativ tadqiqot degan uslub keng tarqalgan edi. Bu yerda zamonaviy turizm modellarini (navbatlar, o'yinlar nazariyasi, imitatsiya modellari) muammoni tahlil qilish va qaror qabul qilish uchun foydalanish nazarda tutiladi.U yoki bu modelni tatbiq qilish jarayonida qo'llanilishi ob'ektiv axborotning to'planganligi va tahliliga bog'liq. Turizmda eng dolzarb muammolardan biri, axborot boshqaruvin kanallariga yetarli hajmda va kerakli vaqtida kelishi zarurdir. Bu eng muhim erishuv hisoblanadi. Agarda axborot kerakli vaqtida yetib kelmasa, bozorda katta yo'qotishlarga olib kelinishi mumkin.

Turizmnинг milliy modelini yaratishda boshqaruvin asosiy o'rinn tutadi. Shuning uchun ham menejmentni jahon talablari darajasiga yetkazishda quyidagi omilar dolzarb hisoblanadi:

- Turizmda kichik va xususiy tadbikorlik faoliyatini to'g'ri yo'naltirish;

- O'zbekistonning turistik imkoniyatlari bilan chet ellik investorlarni tanishtirish va ulardan unumli foydalanish;
- Ichki turistik bozorda o'zaro raqobatni yanada kuchaytirish;
- Zamonaviy turistik komplekslarni bunyod etishda chet el sarmoyasini jalb etishga erishish;
- Jahon bozorida talab katta bo'lgan xalqaro turistik yo'nalishlarni yo'lga qo'yishda va ishlab chiqishda qatnashish;
- Milliy urf odatlar va tarixiy arxitektura yodgorliklarini asl ko'rinishda saqlab qolishga erishish;
- Milliy turistik mahsulotlarni yagona markazga birlashtirish;

Turizm sohasi uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirishdan Xorazm viloyati Urganch shaxri vokzali zamonaviy talablar asosida rekonstruksiya qilinga va jihozlangan bo'lsada hali rivojlangan mamlakatlar vokzallaridagi qo'shimcha imkoniyatlar mavjud emas. Bular quyidagilardan iborat:

1. Biletlarni sotib olish va poezdlarning kelish, ketish vaqt, bilet narxi haqida axborot olish imkoniyatiga ega bo'lgan elektron avtomatlar mavjud emas;
2. Vokzalga yaqin hududda uzoq kutib qoluvchi turistlar uchun vokzal mehmonxonalari qurilmagan. Vaholangki bu yo'nalishdan ham kompaniya daromad olishi va mizojlar uchun qulaylik tug'dirishi mumkin;
3. Chet ellik turistlar uchun valyutani erkin almashtirish bo'yicha bankomatlar qo'yilmagan;
4. Qo'shimcha tez ovqatlanadigan joylar, masalan, "Lavash sentr" yoki "Burger king" ni ochish evayiga kata daromad olish va sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyati paydo bo'ladi.
5. Qo'shimcha savdo do'konlari tashkil qilish va ularni ijara qilish orqali daromad olish va h.k.z.

Yuqorida aytib o'tilgan tadbirlarni amalga oshirish orqali DAK O'zbekiston temir yo'llari kompaniyasi kelajakda turizmni rivojlantirishga katta hissa qo'shibgina qolmasdan, kompaniyaning daromadlarini oshirish, hamda qo'shimcha ishchi

o'rinlarini ochish imkonini beradi.

Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun kompaniya malakali kadrlar zarur bo'ladi va ular uzluksiz tarzda o'zlarining malakalarini oshirib borishi hozirgi rivojlanib borayotgan jamiyatning eng asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida berilgan har bir taklif va xulosalardan ko'zlanayotgan asosiy maqsad O'zbekistonni ham turizmi rivojlangan davlatlar qatorida ko'rish, xalqaro maydonda O'zbekistonning obro'sini ko'tarish, diplomatik munosabatlarni rivojlantirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2003.
2. "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari.-T.: Adolat, 2000, 131-140 b.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari

1. "O'zbekturizm" MKsining tashkil topishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // "Xalq so'zi", 1992 yil 27 iyul.
2. "Buyuk Ipak yo'liini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada Xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora –tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli Farmoni. // "Xalq so'zi", 1995 yil 3 iyun.
3. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning 2005 yilgacha bo'lgan davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 15.04.1999 yildagi PF-№2286 farmoni. //Xalqso'zi, №74. 1999. 16 aprel

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. "Turistik tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 346 sonli 8 avgustda qabul qilingan Farmoyishi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 1998 yil 9 avgust.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ma'ruzalari va asarlari

1. I.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. –T.: O'zbekiston, 2009 y.
2. I.Karimov. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». -T.: O'zbekiston, 2005 y.
3. I. Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilad. "Xalq so'zi", 2011 yil 22 yanvar.
4. I.Karimov.Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezoni bo'lishi darkor. Xalqso'zi, 2006,25-fevral.

5. I.Karimov. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim.Xalqso'zi, 2006. 11-fevral
6. I.Karimov. Inson, uning huquqi va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliv qadriyat. Xalq so'zi, 2005. 8 dekabr
7. I.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlaktni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.:O'zbekiston. 2005 y.
8. I.Karimov. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan xamkorlik yo'li. –T: O'zbekiston. 2003. -318 b.
9. I.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.:O'zbekiston, 2000 y.
10. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalashlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar.

V. O'zbekistonlik va xorijiy olimlarning adabiyotlari

1. Балабанов И.Т., Балабанов.А.И. «Экономика туризма»- М.: Финансы и статистика, 2004 й.
2. Кабушкин.Н.Н. Менежмент туризма. -М.: Новое знание 2005 г.
3. Чудновский А.Д. Туризм и гостиничное хозяйство М.: ЮРКИНГА. 2005 й.
4. Яковлев.Г.А Экономика и статистика туризма. Учебное пособие. М.: Изд. 2005 й..
5. Кварталнов В.А. Туризм. – М., Финансы и статистика 2004 й .
6. Mirzaev M.A. «Turizm asoslari». Ma'ruzalar matni T.: 2005 y.
7. Хасanova Л.Г. «Основы туризма». Учебно-методический комплекс по дисциплине . – Т.: 2006
8. Kamilova F.K. – «Xalqaro turizm bozori» T.: TDIU-2001y.
9. Alieva M.T., Umarjonov A. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti.-T.: Moliya 2005 y.
10. Tuxliev I.S., Qudratov G'.H., Pardaev M.K. Turizmni rejalashtirish.T.:

“IQTISOD-MOLIYA” 2010 у.

11. Tuxliev I.S. Turizm asoslari. Uslubiy qo'llanma. Samarqand.: SamISI, 2008 у.
12. Tuxliev I.S, Qudratov G.X. Turizm iqtisodiyoti. –S.: SamISI., 2007 у.
13. Tuxliev I.S. va boshqalar. “O'zbekistonda turizm xizmat bozorini rivojlantirishning ijtimoiy – iqtisodiy muammolari” nomli monografiya. T.: “Iqtisodiyot” 2012 у.
14. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. «Формальности в системе туризма Республики Узбекистан» - Т: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2007 й
15. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Основы безопасности в туризме. –Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008 й.

VI. Internet saytlari

1. www.interunion.ru
2. www.world-tourism.org
3. www.wttc.org
4. <http://www.wto-marketing.ru>
5. <http://www.tourism.uz>
6. <http://www.tour.uz>